

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/360068989>

TURIZM VA UNI SIRDARYO VILOYATIDA RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Book · July 2021

CITATIONS

0

READS

14

4 authors, including:



Asqar Nigmatov

Gulistan state universitet

62 PUBLICATIONS 17 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)



Odiljon Tobirov

Gulistan State University

36 PUBLICATIONS 2 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)

Some of the authors of this publication are also working on these related projects:



Geography, ecology, tourism and education [View project](#)



The Methodological Basis of Geographical Tourism [View project](#)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**Asqar Nigmatov, Abror Yuldashev, Lola Qarshiboyeva,
Odiljon Tobirov**

**TURIZM VA UNI SIRDARYO
VILOYATIDA RIVOJLANTIRISHNING
GEOGRAFIK JIHATLARI**

MONOGRAFIYA

**Guliston
«NAVRO‘Z» nashriyoti – 2021**

Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlari. A.Nigmatov va boshq. Monografiya. – Guliston: «Naro'z», 2021.– 90 b.

Monografiyada turizm, turizm industriyasi va turizm bozori kabi termin va atamlarning izohi, ularni ma'muriy birliklar doirasida rivojlantirish zarurati yoritilgan. Unda Sirdaryo viloyati o'ziga xos turizm tadqiqot obyekti sifatida ko'rilgan hamda uning sayyohlik imkoniyatlari va rivojlantirishning kelajak istiqbollari ochib berilgan. Guliston davlat universiteti misolida turistik ta'limga tegishli o'quv jarayonining holati hamda uni takomillashtirish yo'llari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Monografiya geografiya va geografiya ta'limi, turizm va turizm ta'limi kabi yo'nalishlar hamda mutaxassisliklarda faoliyat yuritayotgan tadqiqotchi, talaba, magistr, doktorant va pedagoglar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: *Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, g.f.d.Nigmatov A.N.*

Taqrizchilar:

Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, b.f.n.Doniyorov S.A.

Nizomiy nomidagi ToshPU Geografiya kafedrasini dotsenti v.b., PhDRasulov A.B.


Monografiya GulDU Ilmiy-metodik kengashida(2021-yil 5-iyul 12-sonli bayonnoma) muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Bob va paragraflar:		
t/r	nomi	beti
MUQADDIMA		5
I bob.	TURIZM VA UNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI	9
1.1.	Turizm, turizm industriyasi va turizm bozori	9
1.2.	Ma'muriy birliklar doirasida turizmni rivojlantirish zarurati	26
II bob.	SIRDARYO VILOYATI – O‘ZIGA XOS TURISM OBYEKTI SIFATIDA	36
2.1.	Sirdaryo viloyatining turistik imkoniyatlari	36
2.2	Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning kelajak istiqbollari	50
III bob.	GULISTON DAVLAT UNIVERSITETIDA TURIZMGA DOIR O‘QUV JARAYONI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	64
3.1.	Guliston davlat universitetida turizmga doir o‘quv jarayoni holati	64
3.2.	Guliston davlat universitetida turizmga doir o‘quv jarayonini takomillashtirish yo‘llari	70
Xulosa		76
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati		80
Ilova		84

MUQADDIMA

Hozirgi zamonda globallashtirish jarayoni, xalqaro axborotlar, aloqa, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot tizimining takomillashuvi turizm sohasini barqaror rivojlantirib, dunyoning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirdi, xalqaro miqyosda nufuzini oshirdi. Xususan, qisqa davr ichida xalqaro miqyosda turistlar sonini 3,8marta, ulardan tushadigan valyuta tushumining 11marta oshganligi fikrimizning dalilidir¹. Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda ushbu tarmoqda jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizi yaratilgan, xalqaro miqyosda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmining esa 6,8 foizini tashkil etgan². Jami xizmatlar eksporti hajmining 28,3 foizi (1,7 trln. AQSH dollari), umumiy bandlik ko'rsatkichining esa 10 foizi ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi hamda dunyo bo'yicha yaratilayotgan har o'n birinchi yangi ish o'rni turizm sohasiga to'g'ri keladi³ (1-rasm).



1-rasm. Jahon iqtisodiyotida turizmning tutgan o'rni

¹ UNWTO.»Tourizm Highlights» ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.


² UNWTO.»Tourizm Highlights», 2019. Edition, <http://www.unwto.org>

³ Travel & Tourism Economic Impact, 2019. World, <http://www.wttc.org>


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonida bevosita turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish vazifasi belgilab qo‘yilgan (2-rasm). Uning ijrosi uchun o‘nlab normativ-hujjatlar qabul qilindi, har bir ma‘muriy birliklar, jumladan Sirdaryo viloyatida ham turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» hamda 2021-yil 3-fevraldagi 6155-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish, Oliy ta‘lim va Xalq ta‘limi vazirliklariga «Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirishni...amalga oshirish» orqali «Iqtidorli yoshlarning ilmiy g‘oyalarini rag‘batlantirish nitashkil etish» vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib hamda oliy ta‘limda kredit-modul tizimi joriy etilishi munosabati bilan Guliston davlat universiteti (GulDU) Ekologiya va geografiya kafedrasining bakalavriyat bosqichidagi «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o‘quv fani misolida tegishli yo‘nalish bo‘yicha o‘quv dasturlariga kreativ yondashildi. Mazkuro‘quv fanini tahlil qilish mobaynida bir qator muammoli holatlar aniqlandi. Monografiya aynan mazkur muammolarning yechimini topishga qaratilgan dolzarb masalalar turkumiga kiradi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar «Turizm va geografik iqtisodiyot» kredit o‘quv modulini namuna sifatida keltirib o‘tildi.


O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonining o'sishi
(ming kishi)




Mehmonxonalar va boshqa joylashuv vositalari soni
(dona)



Turizm faoliyati subyektlari soni
(turoperatorlar)



Turizm xizmatlari eksporti
(mln. AQSh dollari hisobida)



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2011–2021-yillar davomida turizm industriyasining rivojlanish tendensiyasi

Monografiyaning maqsadi – turizm va uning geografik xususiyatlarini Sirdaryo viloyati misolida ochib berish hamda unga doir o‘quv jarayonini takomillashtirish.

Monografiyaning maqsadiga erishmoq uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- ✓ turizmning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;
- ✓ ma’muriy birliklar doirasida turizmni rivojlantirish zaruratini asoslash;
- ✓ Sirdaryo viloyatining turistik imkoniyatlari va turizmni rivojlantirishning kelajak istiqbollari aniqlash;
- ✓ Guliston davlat universitetida turizmga doir o‘quv jarayoni holatini tahlil qilish;
- ✓ Guliston davlat universiteti misolida turizmga doir o‘quv jarayoni holati va uni takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha takliflar kiritish.

Tadqiqot obyekti– turizm va Sirdaryo viloyatining turistik imkoniyatlari hamda GulDU geografiya yo‘nalishida turizm ta’limi.

Tadqiqot predmeti– tadqiqot obyektining hududiylik, davriylik, komplekslilik, tizimlilik xususiyatlari va ularga oid bakalavriyat ta’limining dasturiy ta’minoti.

Ibob.TURIZM VA UNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

1.1. Turizm, turizm industriyasi va turizm bozori

Turizm sohasining nazariy masalalari, uning barqaror rivojlanishi hamda hududiy xususiyatlari xorijlik va respublikamizdagi tegishli soha mutaxassislari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Masalan, xorijiy olimlardan Pearce D.G., Butler R.W.(1999) kabi olimlar asarlarida uning ilmiy-nazariy jihatlari ko'rib chiqilgan. Huddi shu kabi tadqiqotlar, lekin faqatgina uning hududiy rivojlantirish negizida ko'rib chiqilgan masalalar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlaridan Zorin I.V., Kaverina T.P., Kvartalnov V.A(2005), Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. (2005), Durovich A.P., Kabushkin N.I., Sergeeva T.M. (2003), Senin V.S. (2003), Xristov T.T. (2005), Chudnovskiy A.D. (2014), Fedsov V.G. (2008), Birjakov M.B. (2000) kabi mutaxassislarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasida Abduraxmonov Q.X.(2013), Boltaboyev M.R. (2017), Pardayev M.Q. (2006), Tuxliyev I.S., Qudratov G'H. (2007), Tuxliyev N., Abdullayeva T. (2006), Soliyev A.S., Usmonov M.R. (2005), Hoshimov M. (2010), Norchayev A. (2010), Turayev B.X. (2005), Nigmatov A.N. (2011, 2012, 2018–2021), Aliyeva M.T. (2007) kabi iqtisodchi va geograf olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turizm sohasini mamlakatimizda rivojlantirishga oid takliflari ishlab chiqilgan. Hamidov O.X. (2006), Ibragimov N.S. (2017), Ro'ziyev S.S. (2007), Shamuratova N.T. (2011), Kamolov B.X. (2017), Yakubjonova Sh.T. (2012), Shomurodova Sh.G. (2020), Mahmudov M.M. (2021) kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida esa O'zbekiston va uning ma'muriy hamda mintaqaviy birliklarida turizmning ilmiy-nazariy asoslariga alohida urg'u berilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar tahlili asosida shuni ta'kidlash zarurki, Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari yetarlicha o'rganilib, ta'lim tizimiga joriy etilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

O'rganilgantadqiqotlarda hududiy tahlil, kartografik, geografik taqqoslash, qiyosiy va statistik tahlil, kuzatish kabi metodlardan atroflicha foydalanildi.

Barchamizga ma'lumki, hozirda turizm nafaqat rivojlangan, balki, rivojlanayotgan, hattoki, nisbatan kam rivojlangan mamlakatlar va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini qudratli katalizatori bo'lib hisoblanmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda xalqaro turizm sohasida dunyoning mehnatga layoqatli aholisining 330,1 mln. nafari banddir¹. Shuningdek, bu tarmoqda yaratilgan bitta yangi ish o'rnini sanoat tarmog'iga nisbatan 20 barobar arzonga tushadi². Biror-bir mamlakatga tashrif buyuruvchi har 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o'rinlarini barpo qilishga imkoniyat yaratadi³. Demak, mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga nisbatan turizm sohasi kamroq sarf-harajatlar evaziga ko'proq ish o'rinlarini yaratishi va valyuta tushumlarini ta'minlashi mumkin.

Jahon iqtisodiyoti turizm sohasining istiqboli, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini, ahamiyati va amaliy jihatlari uning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruriyatini ilgari surmoqda. Ko'pchilik olimlar o'z tadqiqotlarida «turizm» tushunchasining mohiyatini yoritib berishga e'tiborlarini qaratishgan. Ammo, bugungi kunda turizm atamasi mazmun-mohiyatini ochib beruvchi qoidalar va ta'riflar bo'yicha yagona fikr mavjud emas.

Taniqli olim E.Koxenning (1984)fikricha, turizm bo'yicha tadqiqotlar qanchalik ko'p bo'lsa, «turizm» tushunchasiga deyarli shunchalik ko'p ta'riflar keltiriladi. Bizning fikrimizcha, turizm sohasiga tegishli tushunchalarning aniq izohi va sharhi jahon miqyosida, qolaversa, mamlakatimiz turizm bozorida sodir bo'layotgan barcha jarayonlar hamda ushbu bozorga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mohiyatini to'g'ri

¹UNWTO. Tourism Highlights 2015 Edition, <http://www.unwto.org>

²Стрельников А.В. «Организационно-экономический механизм обеспечения конкурентоспособности образовательных услуг ВУЗов, занимающихся подготовкой кадров для сервиса и туризма». Автореферат дисс... кан.экон.н. Москва, 2012.– 27 с.

³Богданов Ю.В. Развитие индустрии туризма как фактор социально-экономического роста региона (на примере Санкт-Петербурга и Ленинградской области) Автореферат дисс. .. кан.экон.н. Санкт-петербург – 2004.–28 с.

tushunish hamda soha faoliyatini to'g'ri tashkil etish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirga qadar «*turizm*» *tushunchasiga* berilgan ta'riflarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ushbu soha mutaxassislari tomonidan berilgan birinchi guruh ta'riflari ko'proq aniq bir masalani, statistik maqsadga yo'naltirilgan masalalarni yechish vositasi sifatida xizmat qilib, turizmning alohida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatlarini qamrab oluvchi, birmuncha tor ixtisoslashgan tavsifga ega. Ikkinchi guruhdagilar esa konseptual yo'nalishdagi ta'riflar bo'lib, ular turizmning turli xil xususiyatlari va o'ziga xos munosabatlarini aks ettiruvchi murakkab ichki mazmun va mohiyatni ochib berishga qaratilgandir.

XX-asrning boshlarida turizmning ommaviy hodisa sifatida rivojlanishi kuzatilgan. Bu davrda «turizm» tushunchasiga berilgan ilk sharh va ta'riflar asosan turizm statistikasini yuritish uchun xizmat qilgan. «Xalqaro turist» atamasi ilk bor 1937-yilda Millatlar Ligasi kengashida qo'llanilgan bo'lib, uning quyidagi uchta xususiyati:

- 1) *bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish;*
- 2) *muayyan joyda vaqtinchalik to'xtash;*
- 3) *mehnat qilish va daromad olish o'rtasida aloqaning yo'qligi ajratib ko'rsatilgan*¹.

Turizm sohasi rivojlanishining keyingi davrlarida unga oid tushunchalar ana shu belgilar asosida shakllangan. Ushbu davr oralig'ida «turizm», «turist» tushunchalarining mohiyati va mazmuni bir qator xalqaro anjumanlarda, jumladan 1950-yilda Dublin va 1957-yilda London shaharlarida bo'lib o'tgan rasmiy turistik tashkilotlarning Xalqaro uyushmasi majlislarida; 1963-yilda Rim shahrida bo'lib o'tgan BMTning xalqaro turizm va sayohatlar bo'yicha konferensiyasida; 1986-yilda Manilada o'tkazilgan Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) kongressida; 1991-yilda Kanadaning Ottava shahrida bo'lib o'tgan sayohatlar va turizm statistikasi bo'yicha Xalqaro konferensiyasi kabi anjumanlarda muhokama etilganligi, jahon miqyosida ushbu sohaga oid tushunchalarning naqadar nazariy-amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

¹ Гезгала Я. Туризм в народном хозяйстве. М.: Прогресс, 1974. 212 с.

Turizmning mavjud terminologiyasi muayyan davrga xos tendensiya, hodisa va jarayonlar asosida takomillashtirishga bo'lgan intilishlarni namoyon etadi. Hozirgi kunda UNWTO tomonidan xalqaro turizm statistikasi amaliyotida ishlab chiqilgan, 2007-yil 25-28-iyun Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan anjumanda BMTning turizm statistikasi bo'yicha Ekspertlar guruhi tomonidan ma'qullangan «Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar» (2008) nashrida keltirilgan tavsiya va takliflardan mutaxassislar tomonidan keng miqyosda foydalanilmoqda.

Xalqaro tavsiyalarga ko'ra «*turizm – bu tashrif buyuruvchilarning faoliyatiga tegishli tushuncha*». Mazkur hujjatda tashrif buyuruvchi, «...odatdagi muhitdan tashqarida joylashgan asosiy tayinlangan joyga, mamlakatda yoki tashrif joyida ro'yxatga olingan tashkilotda ishga joylashish maqsadidan boshqa maqsadlarda (kasbga oid, dam olish yoki boshqa shaxsiy maqsadlar), bir yildan kam bo'lgan muddatga safarni amalga oshirgan sayohatchi»¹, deb e'tirof etilgan.

Lekin, amalda «turizm» tushunchasi bo'yicha hanuzgacha bir fikrga kelingani yo'q. Turizm turli xil turistik tashkilotlar, ilmiy maktablar va alohida mutaxassislar tomonidan har xil talqin qilinmoqda (1.1.1-jadval).

Turizmga berilgan ta'riflarni tahlil qilgan holda biz turizmga quyidagicha, «*turizm – shaxs(lar)ni bo'sh vaqtlarida doimiy yashab turgan joylaridan 24 soatdan kam bo'lmagan va 6 oydan ko'p bo'lmagan davr oralig'ida (kamida bir kecha qolish) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda, madaniy, ma'rifiy, kasbiy, diniy, sport va boshqa maqsadlarda o'zga mintaqaga yoki davlatga vaqtincha yashash uchun jo'nab ketishi va sayohatning boshlang'ich nuqtasiga qaytish bilan yakunlanadigan sayohatlar*», deb ta'rif beramiz.

Turizm industriyasi amaliyotida V.Xunsiker, K.Krapfning «turizmning bosh nazariyasi» bo'lgan ta'rif keng tarqalgan. Unga asosan: «*turizm — insonlarning ko'chishlari va o'z yashash joylaridan tashqarida to'xtashlari natijasi bo'lib, toki ushbu to'xtagan manzillari doimiy yashash joyiga aylanmagunga hamda daromad olish bilan bog'liq bo'lmagunga qadar ushbu hodisalar va ular bilan bog'liq munosabatlar majmui*

¹Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год. Методологические исследования. Серия М. №83/ Rev.1. ООН. Мадрид и Нью-Йорк, 2010. – 179 с.

«Turizm» atamasiga berilgan ta'riflar

<i>T/r</i>	<i>Ta'rif</i>	<i>Manba</i>
1.	Insonlarning shaxsiy yoshi kasbiy maqsadlar uchun odatiy muhitdan tashqarida bo'lgan joy yoki mamlakatlarga ko'chib o'tishga olib keladigan ijtimoiy madaniy va iqtisodiy hodisa	Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)
2.	Fuqarolarning, chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, madaniy, ma'rifiy, kasbiy va biznes, sport, diniy va boshqa maqsadlar uchun, shuningdek, pullik faoliyat bilan shug'ullanmasdan boshqa mintaqaga, davlatga vaqtincha yashash uchun jo'nab ketishi va sayohatning boshlang'ich nuqtasiga qaytish bilan yakunlanadigan sayohatlar	Российский энциклопедический словарь. «Туризм». Под ред. С.Ю. Житенёва. М.: Институт Наследия, 2018. – 490 с.
3.	Jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)	O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi «Turizm to'g'risida» qonuni
4.	Jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi)	O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik.–T.: «O'zME DIN», 2000. 5-j. 722-b.
5.	Jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi.	Мирзаев М.А., Алиева М.Т. Туризм асослари: бакалаврият таълим йўналишлари талабалари учун ўқув кўлланма.– Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2011. –288 б.

*hisoblanadi»*¹. Ushbu ta'rifga o'xshash ta'rif avstriyalik huquqshunos olim P.Berneker tomonidan keltirilib, u turizmni «sayohatchining notijoriy hamda o'z kasbiga bog'liq bo'lmagan maqsadlarda, vaqtinchalik va ixtiyoriy tarzda yashash joylarini almashtirishi bilan bog'liq o'zaro aloqalar va xizmatlar majmui»² sifatida izohlaydi. Yuqorida keltirilgan ta'riflarda turizm tushunchasining mazmun-mohiyatini ko'proq turistik talab nuqtai nazaridan yoritib berishga qaratilgan yondashuvi kuzatilib, unda turistik mahsulotni ishlab chiquvchilarning faoliyatiga bog'liq munosabatlar majmui ushbu ta'riflarda o'z aksini topmagan.

Bugungi kunda, soha mutaxassislari tomonidan keltirilgan ta'riflarda turizmning ko'p qirrali, turli-tuman ko'rinishdagi tushuncha sifatida e'tirof etilishi,– «*turizm bir paytning o'zida faoliyat shakli, milliy iqtisodiyot tarmog'i, rekreatsiya ko'rinishi, dam olish usuli bo'lishi bilan bir qatorda san'at, ilm-fan hamda biznes hisoblanadi»*³, – degan izohlarda ham o'z aksini topmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, turizm tushunchasiga nafaqat turli xil izoh va ta'riflar berilgan, balki ushbu turli xil ta'riflarda uning tarkibiga o'zaro taqqoslab bo'lmaydigan hodisa, jarayon va munosabatlar ham kiritilgan. Ba'zi bir mutaxassislar turizmni iqtisodiy jarayon sifatida «turistik tur» tushunchasiga xos mazmun orqali ifodalasalar, boshqalari esa turistik tashkilotlar faoliyati sifatida izohlaydilar.

Ko'pgina davlatlarda turizm sohasi hanuzgacha milliy iqtisodiyot tarmoqlari tarkibiga mustaqil tarmoq sifatida kiritilmagan. Shu sababli ba'zi bir tadqiqotchilar turizmni milliy iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida e'tirof etishni xohlamaydilar. M.A.Jukovanning monografik asarida ushbu guruh tadqiqotchilarining «... tashkilotlarning arziyas miqdorigina aynan turistlar uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, ularning ko'pchiligi mahalliy aholi talablarini qondirishga ixtisoslashgan» degan fikrlari qattiq tanqid ostiga olinib,

¹Мескон М. Х., Альбер М., Хедоури Ф. Основы менеджмента (пер. с англ.). – М.: «Дело ЛТД», 1995.–704 с.

²Квартальнов В.А. Стратегический менеджмент в туризме: Современный опыт управления.– М.: «Финансы и статистика», 1999.– 496 с.

³Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: 2-е изд.– М.: «КНОРУС», 2006. – 193 с.

«ushbu nuqtai nazar asossiz hisoblanadi, chunki turizm tarmog‘i kompleks xizmatlar yoki tur deb atalmish o‘zining shaxsiy ixtisoslashgan mahsulotiga ega»¹ demoqdalar. Xuddi shunday holat bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham kuzatilib, turizm iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichining (XXTUT bo‘yicha – 91620 kodi bilan) alohida tarmoq osti guruhiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan Turizm to‘g‘risidagi qonunida keltirilgan «*turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)*»² ta’rifda ham turizmning mazmun va mohiyati to‘liq qamrab olinmagan. Shu sababli bo‘lsa kerak mamlakatimizda turizm sohasiga oid ishonchli va aniq statistika mavjud emas.

Bir qator tadqiqotchilar «turizm» tushunchasini «tarmoq» sifatida emas, balki bir-biri bilan bog‘langan «tarmoqlararo majmua» sifatida talqin etmoqdalar. Misol uchun, rossiyalik olimlar M.Morozov, N.S.Morozova, G.A.Karpova, L.V.Xorevalarning «Zamonaviy turizm murakkab tarmoqlararo majmua sifatida namoyon bo‘ladi»³, M.N.Dmitriyevning esa «Turizm – bu iste’molchilarning maxsus kategoriyasi (turistlarning) ehtiyojlarini qondiruvchi hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soha tarmoqlari tashkilotlaridan iborat milliy xo‘jalikning tarmoqlararo majmuasidir»⁴, degan ta’riflarida ham ushbu holatni kuzatish mumkin.

AQSH kongressi «turizm – bu doimiy yashash joyidan tashqarida kundalik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa har qanday maqsadlardagi sayohatlarni transport xizmatlari, tovarlar, joylashtirish va boshqa kerakli vositalar bilan ta’minlovchi tashkilotlar va faoliyat turlarining o‘zaro aloqadagi birlashmasidir»⁵ sifatida e’tirof etilgan. 1989-

¹ Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. 2-е изд. – М.: «КНОРУС», 2006. – 193 с.

² O‘zbekiston Respublikasi Turizm to‘g‘risidagi qonuni, 2019.18.06.

³ Экономика туризма .МорозовМ. А. и др.– М.,2014. – С. 253.

⁴ Дмитриев М.Н., Забаева М.Н., Малыгина Е.Н. – 2-е изд.– М.: «ЮНИТИ–ДАНА», 2010.– С.27.

⁵ Жукова М.А. Индустрия туризма: менеджмент организации. – М.: «Финансы и статистика», 2003. – 192 с.

yil 14-aprelda qabul qilingan turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasida,– «turizm – insonlarning o'z yashash va ish joylaridan mustaqil ko'chishlarini, shuningdek, ularning ko'chib yurishlari natijasida vujudga keladigan talablarini qondirish uchun yaratilgan xizmat ko'rsatish sohalarini o'z tarkibiga oladi»¹, – degan ta'riflarda ham shunday yondashuv kuzatilmoqda. Keltirilgan ushbu ta'riflarning mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, «turizm» tushunchasi ko'proq «turizm industriyasi» atamasiga mos tushmoqda.

Bizningcha, ushbu ta'riflarda «turizm» tushunchasining mazmun va mohiyatini ochib berishda olimlar va soha mutaxassisleri tomonidan taklif nuqtai nazaridan yondashilgan. Bu esa sohaga xos murakkab tizimli munosabatlarning mohiyatini to'liq ochib berishda yetarli emas. Bundan tashqari, turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim nazariyasi hisoblanib, u murakkab tizimning mohiyatini «majmua» tushunchasi orqali talqin etish noto'g'ridir.

Turizm va turist tushunchalari qanday ilmiy ma'no anglatadi? O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda Turizm to'g'risidagi qonunga muvofiq *«turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakati (joyi)dagi manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)»*. *«Turist – vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyi)dagi manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyi)ga yigirma to'rt soatdan ketma-ket o'n ikki oygacha bo'lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyi)da kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs»*. Qonunda aks ettirilgan mazkur tushunchalar xalqaro talablar va ilmiy-nazariy nuqtai nazardan mulohazalidir. Chunki:

Birinchidan, turizm – bu industriya. Industriyada nafaqat jismoniy shaxs, balki bevosita tarzda maxsus boshqaruv, yuridik shaxs, xalqaro tashkilot, milliy kompaniyalar yoki bilvosita tarzda milliy boshqaruv tizimi, xizmat va servis ko'rsatishga doir ta'minot hamda xavfsizlik xizmatlari kabi o'nlab tuzilmalar jalb etiladi.

¹ Мескон М., Альбер М., Хедоури Ф. Основы менеджмента (пер. с англ.)– М.: «Дело ЛТД», 1995. 704 с.

Ikkinchidan, Qonunda «vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyi)dagi» degan iboraga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki yuqorida sanab o‘tilgan, bevosita yoki bilvosita tarzda turizm industriyasiga jalb etiladigan tuzilmalarning «doimiy yashash joyidan jo‘natib ketishlari» shart emasdir.

Uchinchidan, «jo‘nab ketish» «sayohat qilish» degan ma‘noni anglatmaydi, turizm umuman jo‘nab ketmaydi, turist esa jo‘nab ketsa «migrant – muhojir»ga aylanadi, ya‘ni albatta muayyan muddatda doimiy yashash joyiga qaytib keladi.

To‘rtinchidan, xalqaro huquqda kishi turist maqomiga o‘tishi uchun albatta doimiy yashash joyidan vaqtinchalik borar joyiga kamida 24 soat va 3 oydan (1989-yil Budapesht konvensiyasiga binoan) 1 yilgacha (O‘zR qonunchiligiga binoan) oshmagan muddatda doimiy ravishda bo‘lishlari kerak. Lekin juda kamdan kam hollarda turistlar 3 oydan oshmagan tarzda, daromad qilmasdan, faqat uni sarf qilgan tarzda o‘zga joy (hudud) yoki yurtda bo‘lmaydilar. Aks holda ular ziyoratchi, xizmat safarida bo‘luvchi, ekskursant va muhojirlarga aylanishlari mumkin. 1963-yilda qabul qilingan BMTning turizm va sayohat Rim diplomatik konferensiyasining yakuniy hujjatiga muvofiq turist – sayohatchi, ekskursant – ziyoratchidir.

Beshinchidan, «mamlakat» so‘zi «joy» so‘ziga sinonim emas, chunki mamlakat – ma‘muriy-geografik, joy – tabiiy-geografik, davlat – siyosiy-ma‘muriy birlikdir (Bayqabilov, Nigmatov, Mirackmalov, & Karakulov, 2019). Turizm nuqtai nazardan mamlakat so‘zining o‘rniga o‘zga davlati mamlakat so‘zini (xalqaro va tashqi turizm maqomiga ko‘ra), joy o‘rniga o‘z davlati yoki mamlakati miqyosida (milliy va ichki turizm maqomiga ko‘ra) so‘z birliklarini ishlatish mazkur tushunchalarning ilmiy asosi bo‘lib hisoblanadi. Nega mamlakat o‘rniga davlat, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Chunki turistlar uchun belgilanadigan ruxsatnoma (viza) va ularning chet elda sayohat qilishlari aksariyat hollarda mamlakat tomonidan emas, balki muayyan davlatning tegishli yo‘nalishdagi milliy qonunchiligiga muvofiq olib boriladi.

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, turizm – sayohatchilik siyosatini belgilash, tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish bilan shug‘ullanuvchi industriya tarmog‘i. «Turizm» atamasiga berilgan tushunchaning ilmiy-nazariy asosi quyidagicha:

1. *Sayohatchilik* . Turizm sayohat bilan, o'lkashunoslik esa ziyorat bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida «sayohat» bilan «ziyosat» atamalari bir xil ma'noni anglatmoqda va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining funksional vazifasiga kiritilgan. Lekin statistik ma'lumotlarni olib borish va xizmatlarni tashkil etish buni ikki xildagi aholining harakati deb anglash, boshqaruv hamda menejment nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

2. *Siyosatini belgilash*. Har qanday davlat turizm sohasidagi siyosatni turli nomlar bilan ataydi, lekin muayyan ma'muriy birliklar doirasida siyosatini yurituvchi maxsus davlat organi orqali olib boriladi. O'zbekistonda turizm sohasidagi bunday vakolatli davlat organi – Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasidir (Turizm to'g'risidagi qonun, 2019).

3. *Tashkil etish va olib borish*. Turizm industriyasiga tegishli har qanday tashkiliy ishlar nafaqat davlat organlari, balki turizm sohasining subyektlari orqali olib boriladi. Bu o'rinda davlat organlari «tartibga solishni», turistik kompaniya yoki firmalar esa «uni yuritish yoki ijrosini» ta'minlaydilar.

4. *Hisobini yuritish*. Turizm sohasiga tegishli boshqaruv va menejmentni amalga oshirish uchun davlat organlari turizm industriyasiga jalb etilgan barcha subyektlar yordamida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, nazoratlash va monitoringini olib borish chora-tadbirlar tizimi.

5. *Industriya tarmog'i*. Turistik mahsulotni ishlab chiqish siyosatini belgilovchi, tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi, uni amalga joriy qiluvchi, xavfsizlikni ta'minlovchi, servis xizmatlarni yo'lga qo'yuvchi o'nlab iqtisodiyot tarmoqlarini bevosita va bilvosita o'ziga qamrab oluvchi majmua.

Turist – kishi yoki ularning uyushmasini doimiy yashash joyidan vaqtinchalik borar joyiga 24 soatdan to 6 oy muddatga muayyan maqsadda yoki maqsadlarda pul to'lanmaydigan sayohati. «Turist» atamasiga berilgan tushunchaning ilmiy asosi quyidagicha:

1. *Kishi yoki uyushma*. Bu o'rinda fuqarolik huquqida yuridik tus olgan «shaxs» emas, ijtimoiy kategoriyaga ega bo'lgan atama «kishi» va ularning turistik maqsadida birlashtiruvchi – «ularning uyushmasi» so'zlar

birligini qoʻllagan maqsadga muvofiq. Zero, shaxs soʻzining lugʻaviy maʼnosida ham jismoniy ham yuridik shaxs ishtirok etadi. Lekin sayyohlar guruhi oilaviy, doʻstlar, hamkasblar bilan uyushib, yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmasdan turib ham sayohat qilishlari mumkin.

2. *Doimiy yashash joyi.* Kishining doimiy yashash joyi uning davlat roʻyxatidan oʻtgan joyiga qarab belgilanadi va turizmga doir aniq bir statistik maʼlumotlar toʻplash hamda ularni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi hamda chalkashliklarga olib kelmaydi.

3. *Vaqtinchalik borar joyi.* Mutaxassislar mazkur masalani yagona bir umumiy toʻxtamga olib kelishi juda qiyin boʻlgan tasniflash muammosi deb taʼkidlaydilar (Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы, 2018, Елена, 2002, Александрова, 2002). Turizm boʻyicha yirik klassifikator olim N.M.Zabelina (1987) sayohatchilarning vaqtinchalik borar joyini 3 ta katta qismga ajratishni maʼqul deb biladi: 1) shahar yoki aholi punkti atrofiga sayohat – 50-100 km; 2) mahalliy sayohat – 100-300 km; 3) uzoq masofaga sayohat – kamida 300 km. Lekin mazkur masofaga qarab tasniflash tashqi va ichki turizmni ajratishga imkon bermaydi. Toshkent shahridan 12 km uzoqlikda Qozogʻiston Respublikasi joylashgan va Turbotga borib rekreatsiya yoki tibbiy turistlik Chorvoq turistik-rekreatsiya zonasiga borib kelishdan farq qiladi, albatta.

4. *24 soatdan to 6 oy muddatga.* Muayyan muddat soʻzlar birikmasiga aniqlik kiritish uchun «vaqtinchalik borar joyiga 24 soatdan to 6 oygacha borishi» soʻz birikmalarini kiritish «turist» maqomini xalqaro standartlarga moslashtiradi.

5. *Muayyan maqsad yoki maqsadlarda.* Turizm turlarining kundan kunga jadal suratlarda tarmoqlashib, koʻpayib borayotganligi ularning nima maqsadda sayyohlik qilishga jazm etganliklarini inobatga olgan tarzda bayon etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur «turist» tushunchasida uning turlarini qisqa va aniq qilib kiritish orqali ifoda etish mumkin. Masalan, «muayyan maqsadda» oʻrniga «agroturizm» yoki «diniy turizm» soʻzlarini kiritish orqali Agroturizm va Diniy turizmga taʼrif berish mumkin boʻladi. Agarda kishi yoki uyushma ikki va undan ortiq turizm turini tanlasa «muayyan maqsadlarda» oʻrniga «kompleks

turizm» yoki «geografik turizm» soʻzlar birikmasini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

6. *Pul toʻlanmaydigan sayohat.* Sayyohlarga mazkur yoʻnalishdagi tashrifi uchun pul toʻlanmaslik talablarini tushunchada aks ettirish zarur. Chunki, kishining xizmat safari, turli musobaqalarda ishtirok etishi, biznes safarlari, davlat yoki korporativ maxsus topshiriqlarni bajarishi vaqtinchalik pullik tashrifidir.

Bugungi kunda «turizm industriyasi» tushunchasining koʻplab taʼriflari ishlab chiqilgan boʻlib, ularning ichida birinchi va nisbatan aniq taʼriflardan biri 1971-yilda BMTning savdo va rivojlanish boʻyicha konferensiyasida keltirilgan. Unda «*turizm industriyasi –...sayohat qiluvchi shaxslar uchun tovar va xizmatlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish shakllari majmui*»¹, – deb taʼrif berilgan. Oʻzbekiston Respublikasining «Turizm toʻgʻrisida»gi yangi qonunida «*turistik industriya – joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish obyektlari va koʻngilochar, maʼrifiy, ishbilarmonlik, davolash-sogʻlomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga moʻljallangan obyektlar, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilotlar majmui, shuningdek ekskursiya yetakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yoʻriqchi-yoʻl boshlovchilarning xizmatlari majmui*» sifatida talqin etilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasiga oid ilmiy adabiyotlarda ham turizm industriyasi tushunchasi har tomonlama tadqiq etilib, ushbu soha mutaxassislari I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, N.E.Ibodullayev, R.S.Amriddinova «*turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, koʻngil ochish obyektlari va vositalari, bilim orttirish, davolash, sogʻlomlashtirish, sportga doir, diniy-marosim, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi*

¹ Жукова М.А., Ходорков Л.Ф. Менеджмент в туристском бизнесе. 2-е изд. – Москва: «КНОРУС», 2006. – 193 с.

tashkilotlar majmuidir»¹, – deb ta’rif berishgan. Ammo, bizning fikrimizcha, «Turizm industriyasi»ga berilgan ta’rifda uning butun ko‘lami va tarmoqlarini qamrab olish mushkul va shart ham emas. Masalan, Kanadalik mutaxassislar Kanada davlati turindustriyasi tarkibini jami 41 turdagi xizmat turlaridan iborat², deb e’tirof etishsa, amerikalik ekspertlar mamlakat turindustriya tarkibiga 39 turdagi xizmatlarni kiritishadi. Shu sababli, biz rossiyalik olimlar M.E.Nemolyayeva va L.F.Xodorkovlarning bu boradagi «*zamonaviy turizm industriyasi – bu insonlarning tashrif buyurgan davlatlarida pul to‘lanadigan kasbiy faoliyatdan tashqari istalgan maqsadlarda vaqtinchalik ko‘chib yurishlari davomida vujudga keladigan talablarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqaruvchilar guruhidir»³*, -degan fikrlariga qo‘shilamiz (1.1.2-jadval).

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, turizm sohasining rivojlanishiga milliy xo‘jalikning tarmoqlararo majmuasi doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi sifatida yondashish lozim. Vaholanki, turizm sohasi faqat vertikal joylashmasdan, iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lgan holda gorizontal maydonni ham qamrab olgan⁴.

Yuqorida «Turizm» tushunchasiga berilgan ta’riflar tahlili asosida shunday xulosa qilishimiz mumkin, uning mohiyatini ochib berishga ikki yoqlama yondashuvni: birinchidan, ushbu tushunchani talqin etish konsepsiyasiga «talab» nuqtai nazaridan; ikkinchidan, «taklif» nuqtai nazaridan yondashuvni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda turizmga oid keltirilgan ba’zi fikrlarda ushbu ikki yondashuvni birlashtirishga bo‘lgan intilishlarni ham kuzatish mumkin. Xususan, Xalqaro turizm Akademiyasi vitse-prezidenti M.B.Birjakovning fikriga ko‘ra, «turizm – bu: birinchidan, turizmning aniq maqsadlari asosida turistlar tomonidan amalga oshiriladigan sayohatlarning o‘ziga xos

¹Туризм асослари. Тухлиев И.С. ва бошқ. Ўқув қўлланма. 3-нашри. – Самарқанд: «СамИСИ», 2010. – 284 б.

² Российский туристский бюллетень. Туризм: информация, статистика, анализ. №9, 1999.– С.13-16.

³Жукова М.А. , Ходорков Л.Ф. Менеджмент в туристском бизнесе. 2-е изд. – Москва: «КНОРУС», 2006. – 193 с.

⁴ Квартальнов В.А. Стратегический менеджмент в туризме: Современный опыт управления. — М.: Финансы и статистика, 1999.– 496 с.

«Turizm industriyasi»ga berilgan ta'riflar

<i>T/r</i>	<i>Ta'rif</i>	<i>Manba</i>
1.	Turar joy binolari, transport va umumiy ovqatlanish korxonalari, sayyohlik va ekskursiya tashkilotlari, tashrif buyuradigan obyektlar, savdo va ko'ngil ochish joylari, bog'lar, jihozlangan plyajlar, suzish havzalari va sport inshootlari, tibbiyot va sog'liqni saqlash muassasalari, ko'rgazma majmualari, konferens zallari, konsertlar, tanlovlar va festivallar, yig'ilish xonalari maxsus jihozlar, muhandislik va texnik qo'llab-quvvatlash tizimlari	Российский энциклопедический словарь «Туризм». Под ред. С.Ю. Житенёва.– М.: Институт Наследия, 2018. – 490 с.
2.	Joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish obyektlari va ko'ngilochar, ma'rifiy, ishbilarmonlik, davolash-sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga mo'ljallangan obyektlar, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar majmui, shuningdek ekskursiya yetakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning xizmatlari majmui	O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida» qonuni, 2019
3.	Sayohat va dam olish uchun sharoitlarni ko'paytirish, ya'ni turistik mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ko'p tarmoqli sanoat majmuasi	Туристический клуб: http://holm-forum.ru/
4.	Sayohat qiluvchi shaxslar uchun tovar va xizmatlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish shakllari majmui	ВМТning savdo va rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi
5.	Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko'ngil ochish obyektlari va vositalari, bilim orttirish, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy-marosim, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmui	Туризм асослари. Тухлиев И.С. ва бошқ. Ўқув қўлланма. 3-нашри. – Самарқанд: «СамИСИ», 2010. – 284 б.

ommabop shakli, ya'ni turistning faoliyat shakli; ikkinchidan, ushbu sayohatlarni tashkillashtirish va amalga oshirish bo'yicha turistik faoliyatdir. Turistik faoliyat esa turizm industriyasi va unga aloqador

tarmoq korxonalari tomonidan amalga oshiriladi¹». Shusababli, biz mamlakatimizda sohaning yetakchi mutaxassisleri va olimlaridan biri N.Tuxliyevning bu boradagi: «turizmni talab va taklifning kompleks tizimi sifatida ko‘rib chiqish mumkin²», – degan fikriga qo‘shilamiz, hamda «turizm» tushunchasini «talab va taklifning uyg‘un birligi» nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Turizmning murakkab mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan ana shunday yondashuvlar asosida tahlil etish, aniqlash, hamda amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish bizning tadqiqotimizning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardagi «turizm» tushunchasining turindustriya sifatidagi, talqinini: «tarmoqlararo ishlab chiqarish majmuasi tarkibiy komponentlari orasidagi ko‘p qirrali aloqalardan tashkil topgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim», – sifatidagi mazmun bilan to‘ldirish, maqsadga muvofiqdir.

Bunday nuqtai nazar V.I.Azar tomonidan berilgan ta’rifda aks etgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra «turizm – alohida davlat, xalq xo‘jaligi doirasidagi alohida elementlar o‘rtasidagi turli xil aloqalarni, shuningdek milliy iqtisodiyotning butun jahon xo‘jaligi bilan o‘zaro aloqalarini qamrab olgan ulkan iqtisodiy tizimdir»³. N.Tuxliyev ham o‘zining asarida yuqoridagi fikrga o‘xshash ta’rifni keltirgan bo‘lib, u: «turizm – bu barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga kirib boruvchi, hudud darajasidan global darajagacha ko‘plab o‘zaro bog‘liqlikdagi turli xil faoliyatlar va xizmatlar majmuini namoyon qiluvchi murakkab tizimdir»⁴, – deb e’tirof etadi.

Mutaxassis olimlarning fikrlardan kelib chiqqan holda, «turizm» kategoriyasini yoritib berishda, ushbu soha shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

¹ Биржаков М. Б. Введение в туризм: изд. 9-е, перераб. и доп. СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. – 576 с.

² Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. — Т.:Гос.науч.изд-во Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 367 с.

³ Жукова М.А. Индустрия туризма: менеджмент организации. — М.: Финансы и статистика, 2003. – 192 с.

⁴ Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. — Т.:Гос.науч.изд-во Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 367 с.

✓ turizm sohasi, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ko'p qirrali funksional tuzilmaga ega murakkab tizim hisoblanib, xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan o'ziga xos shakl va usullarni qamrab oladi;

✓ turizm sohasining moddiy ishlab chiqarishdan asosiy farqi, turistik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha pirovard natijalarga erishish bevosita iste'molchi (tashrif buyuruvchilar)ning ishtirokida yuzaga kelishi hamda iste'mol jarayoni bevosita turistik resurslar mavjud joyda amalga oshirilishi hisoblanadi;

✓ turizm bozorida turistlar uchun o'ziga xos bo'lgan turistik mahsulot taklif etiladi.

✓ turistik mahsulot kompleks tavsifga ega bo'lib, turistlarning sayohati davomida vujudga keladigan turistik talabni qondirish uchun zaruriy «xizmatlar paketi» shaklida namoyon bo'ladi;

✓ turistik xizmatlarga bo'lgan talabning bozor konyunkturasiga nisbatan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega;

✓ turizm sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar xavfsizligi o'ziga xos va birlamchi ahamiyatga ega.

Demak, yuqoridagi xususiyatlarni e'tiborga olgan holda «turizm» kategoriyasini quyidagicha talqin etamiz: turizm – bu elementlari o'zaro iyerarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'langan, pirovard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirrali funksional tuzilmasi negizida shakllanadigan, tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Bunda, turizm industriyasining tarkibiy tuzilmasi tarmoqlararo ishlab chiqarish majmuasi obyektlaridan tashkil topgan. Demak, fikrimizcha, turizm industriyasi – turistik safar davomida turistlar iste'molini imkon darajada to'liqroq ta'minlashga kerakli, shuningdek, aynan shu jarayonni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan xizmatlar va tovarlar majmuini ishlab chiqaruvchi, realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning o'zaro bog'langan, murakkab tizimidir.

Turistik xizmatlarning pulga va pulning qaytadan turistik xizmatlarga aylanish hodisasini qamrab olgan jahon xo'jaligi aloqalari tizimi turizm

bozori tushunchasi mohiyatida o‘z ifodasini topadi. «*Turizm bozori*» tushunchasining shakllanishi va takomillashuvi yarim asrdan ortiq tarixga ega. Ushbu davr oralig‘ida ko‘pgina iqtisodchi-olimlar tomonidan turli xil yondashuvlar asosida turlicha ta’riflar ishlab chiqilgan.

Xususan, M.G.Voronsova «*turizm bozori – bu aniq makon va zamonda o‘ziga xos turistik xizmatlar, tovarlarning oldi-sotti jarayonini ta’minlash uchun talab-taklifni birlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir*»¹, – deb ta’rif beradi. Bunga o‘xshash ta’riflar mamlakatimiz olimlari tomonidan ham keltirilgan. Ularning fikricha– «Turistik xizmat bozori – turistik mahsulotni sotish va sotib olish jarayonini ta’minlovchi talab va takliflarni birlashtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va turistik mahsulot iste’molchisi o‘rtasida jamoa iqtisodiy munosabatlarini yuzaga keltiruvchi jabha»².

«Turistik terminlar lug‘ati»da I.V.Zorin va V.A.Kvartalnovlar «turizm bozori – turistik-ekskursiya xizmatlarning pulga hamda pulning esa turistik-ekskursiya xizmatlarga aylanish jarayonlari ta’sirida sodir bo‘luvchi xalqaro xo‘jalik aloqalar tizimi»³ sifatida talqin etdilar. Ushbu holatda turizm bozori ikki tomonlama yondashuv asosida:

birinchidan, *turistik xizmatlarning aylanishi va ayriboshlanishi sohasi sifatida;*

ikkinchidan, *turistik xizmatlarni ishlab chiqish, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonlarini qamrab oluvchi, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi* sifatida talqin etilgan.

Turizm bozorining to‘laqonli ta’rifini ishlab chiqish maqsadida ayrim iqtisodchi-olimlar yangi iqtisodiy atamalarni yaratishga harakat qilganlar. Xususan, S.A.Bistrov va M.G.Voronsovalar turizm bozori xususiyatlariga bog‘liq ravishda uni segmentlarga tabaqalashtirishda «subbozorlar» tushunchasidan foydalanganlar. Ularning fikricha, «subbozorlar» sifatida: mehmonxona xizmatlari; ovqatlanish xizmatlari va boshqa bir qancha bozorlar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin⁴. Turizm sohasining ba’zi tadqiqotchilari esa «*turizm bozori – to‘rtta asosiy elementidan, ya’ni:*

¹ Воронцова М.Г. Туризм: организация и управление. Учеб. Пособие. -СПб.: СПбГУКИ, 2004

²Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Ибодуллаев Н.Э., Амриддинова Р.С. Туризм асослари. Ўқув кўлланма. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. — С.: СамИСИ, 2010. – 284 б.

³Толковый словарь туристских терминов. Москва- Афины. INFOGROUP. 1994г.

⁴Быстров С.А., Воронцова М.Г. Туризм: макроэкономика и микроэкономика. СПб.: Издательский дом Герда, 2008. 464 с.

turistik talab; turistik mahsulot taklifi; narx va raqobatning o‘zaro bog‘liqligidan iborat iqtisodiy tizim»¹ sifatida talqin etishgan.

«Bozor iqtisodiyotining izohli lug‘ati»da turizm bozori tushunchasi «talab va taklifning turistik xizmatlarga nisbatan imkoniyatlari»² sifatida talqin etilgan. Bunda «turizm bozorida taklif» tushunchasiga sifatli va to‘liq taqdim qilinishi faqatgina «hordiq chiqarish» infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanganligiga bog‘liq bo‘lgan turistik xizmatlar va tovarlar hamda turizmning moddiy bazasi kiritilishini taklif etganlar.

Bizning fikrimizcha, turizm bozori– turistik mahsulotlarni sotuvchilar (taklif) va turistik mahsulotlarni sotib oluvchi real va potensial xaridorlar (talab) o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda turistik mahsulotlarga talab va taklifni bevosita tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizmlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab tizim.

Shunday qilib, turizm murakkab ochiq iqtisodiy-ijtimoiy tizim hisoblanib, ungadoir tushunchalar ta’riflarini ishlab chiqishda mazkur tizimga xos xususiyatlarda o‘z aksini topishi lozim. Vaholanki, turizm tizimiga oid kategoriyalarning aniq ilmiy-nazariy talqini va ta’rifi jahon miqyosida, qolaversa, mamlakatimiz turizm sohasida sodir bo‘layotgan barcha jarayonlar hamda unga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mohiyatini to‘g‘ri tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Ma’muriy birliklar doirasida turizmni rivojlantirish zarurati

Dunyoning turizm rivojlangan mintaq va davlatlarida, turizmni rivojlantirishning turli ko‘rinishlari; Yevropa ittifoqi davlatlariturizmni bir nechta davlatlar orasida Markaziy Osiyo davlatlarihar bir davlat o‘zining turizm siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil turizm siyosatini olib borish bilan rivojlantirishni ilgari suradi. Yana bir tur davlatlar borki turizmni faqatgina ichki turizm ko‘rinishda, xorijlik sayyohlar uchun yopiq shaklida olib borish (Shimoliy Koreya, Turkmaniston) shakllarini ko‘rsatish mumkin.

¹ Маркова И.С. Организационно-экономический механизм развития рынка туристских услуг (на примере Хабаровского края) Дисс. ... док. экон. н.– Хабаровск, 2009.– 48 с.


² Толковый словарь рыночной экономики.– Москва: «Глория»,1993. – 301 с.

Turizmni muayyan bir mintaqada rivojlanishiga bir qator omillar o'zining bevosita va bilvosita ta'sirini ko'rsatadi. Eng avvalo hududiy chegaralash masalalarini ijobiy hal qilish asosiy vazifa sifatida turadi. Chunki turistik mintaqalar chegarasini belgilashda eng qulay bo'lgan usul bu tabiiy chegaralardan o'tkazishdir. Lekin, tabiiy chegaralar hamma vaqt ham ma'muriy-siyosiy chegaralar bilan mos kelavermaydi. Shuni inobatga olgan holda turistik mintaqalarni tashkil etish va rivojlantirishda asosan ma'muriy-siyosiy chegaralar asos qilib olinishi maqsadga muvofiq (Casari 2008, Cabaj, Kruczek 2009, Krstev, 2019).

Bundan tashqari, ko'pchilik davlatlar turizm siyosatini viza tizimi orqali olib borishadi. Bu esa birinchidan turli ko'rinishdagi to'siqlarni keltirib chiqarsa, ikkinchidan, turistlarning oqimiga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Yuqoridagi omillarni yorqin ifodasini Markaziy Osiyo davlatlari misolida ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari joylashgan Farg'ona vodiysi hududining chegaralari tabiiy jihatdan olib qaralsa, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlar hududidan tashqari Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati hamda Qirg'iziston Respublikasining Jalol-Obod va Batken viloyatlari ham aynan Farg'ona vodiysi hududida joylashgandir¹ (1.3.1-rasm). Bu o'rinda turizmni faqatgina ma'muriy-siyosiy birliklar doirasida olib borishni talab etadi.


Fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar ro'yxatini ko'radigan bo'lsak, bunday davlatlar soni hozircha 2021-yil hisobiga jami 86 tani tashkil qilmoqda. Shundan, cheklanmagan muddatga vizasiz rejim Markaziy Osiyo davlatlaridan faqat Qozog'iston Respublikasi fuqarolariga berilgan xolos. 60 kungacha vizasiz rejim esa Qirg'iziston Respublikasi fuqarolari uchundir. Tojikiston Respublikasi fuqarolari uchun esa 30 kungacha vizasiz rejim joriy qilingan. Turkmaniston Respublikasi fuqarolariga hozircha bunday huquq

¹JumaxanovSh. Anklavvaeksklavhududlargeografiyasi. *Monografiya*. – Namangan, 2014. – 127 b.



1.3.1-rasm. Markaziy Osiyoda Farg‘ona vodiysi

berilgani yo‘q¹ (1.3.2-rasm). Shuning uchun ham hozirgi kungacha turizmni muayyan hududlarda rivojlantirish uchun amaliyotda keng qo‘llanilib kelinayotgan turizm ko‘rinishlaridan biri bu ma‘muriy birliklar doirasida turizm industriyasini rivojlantirishdir.




1.3.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining viza tizimi

¹<https://tf.mfa.uz/uz/consular/visa/>

Keyingi yillarda turizm sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ham asosan ma'muriy birliklar doirasida amalga oshirilmoqda. Jumladan, M.T.Alimovning «Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)» (2017), B.X.Kamolovning «Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik xususiyatlari» (2018), A.K.Alimovning «Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari» (2018), M.M.Mahmudovning «Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari» (2020) mavzusidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda hududlarning imkoniyatlaridan samarali va to'laqonli foydalanish bilan birgalikda iqtisodiy holatni yaxshilash eng dolzarb muammodir. Bu muammoni hal etish uchun so'ngi yillarda eng samarali yechim bo'lib turizm sohasi asosiy rol o'ynamoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanish tamoyili ko'pgina sohalar qatorida turizm alohida ajralib turadi. Bugungi kunda mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko'paytirish (1.2.3-rasm) va ularga qulay shart-sharoitlarni yaratish asosiy vazifalardan biridir. Bularni amalga oshirishda quyidagi hususiyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.



1.2.3-rasm. 2016-2020-yillar oralig'ida O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar dinamikasi

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar samaradorligini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish yuzasidan ustuvor yoʻnalishlarni amalga oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralida «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonning ilovasi sifatida 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur Farmonning uchinchi yoʻnalish ikkinchi bandi bevosita turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, sifatini yaxshilash va turizm infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgandir.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida xizmat koʻrsatish sohalarini ham jadal rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlab kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasida, ushbu masala xususida alohida toʻxtalib oʻtgandi. Unda mamlakatimizda turizm industriyasini taraqqiy ettirish borasida soʻz, «Oxirgi yillarda turizmdek muhim soha kompleks rahbarining zarur darajadagi eʼtiboridan chetda qolib ketdi. Bu xatoni soʻzsiz va eng muhimi, natijali ravishda toʻgʻrilash kerak. Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shugʻullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmning Oʻzbekiston iqtisodiyoti rivojiga qoʻshadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targʻib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini toʻldirish boʻyicha aniq chora-tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur» degan edi¹.

¹«Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak». Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasi. 2017-yil 14-yanvar.

Ushbu amaliy ishlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son farmoni qabul qilindi. Farmonning ijrosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatining samaradorligini oshirish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda uning rolini kuchaytirish, kirish va ichki turizmni rivojlantirishni birlamchi vazifalar qatoridan joy oldi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4861-sonli, 2018-yil 3-fevralda «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli farmonlari va 2018-yil 7-fevralda «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3514-sonli qarorining qabul qilinishi hamda Viza tizimining isloh etilishi, jumladan, 2019-yildan boshlab 45 davlatga vizasiz tizimning joriy etilishi (elektron viza tizimi hamda ta'lim turizmiga oid «Studentviza», «Academicviza» viza turlari) O'zbekistonda turizm industriyasini yanada rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga 2019-yilda 6,7 milliondan ortiq turistlar tashrif buyurgan. Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra 2025-yilga kelib xorijlik sayyohlar sonini 9-10 million nafarga oshirish, turli ko'rgazmalar, tanlovlar o'tkazish, O'zbekistonni festivallar mamlakatiga aylantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, rekreatsion turizm borasida O'zbekiston Respublikasi ulkan salohiyatga ega bo'lib, bu borada sayyohlar, ziyoratchilar va tibbiy muolaja olmoqchi bo'lganlar uchun qiziqarli bo'lgan ko'plab tarixiy va madaniy meros, davolanish maskanlari

¹<https://lex.uz>

bilan dunyoga mashhur. Mavjud tarixiy va madaniy merosni asrash va kelajak avlodga yetkazish borasida ryespublikamizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Rekreatsion turizmni rivojlanishiga e‘tibor qaratar ekanmiz, avvalo bu davlatning geografik joylashuvi va turistik imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Turizm sohasining eng serdaromad sohasi bo‘lgan rekratsion turizmni rivojlantirish borasida katta yutuqlar qo‘lga kiritib borilmoqda. Hozirgi vaqtda juda ko‘p turistlar bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga borganda albatta o‘sha mamlakatdagi mavjud madaniy-tarixiy obidalarni tomosha qiladi, sanatoriyalarda tibbiy muolajalar oladi, shuning evaziga u dam oladi va hordiq chiqaradi. Bundan tashqari, turistlarni mamlakatlarning tabiati, madaniy-tarixiy obidalarini qiziqtiribgina qolmasdan balki ushbu mamlakatdagi mashhur davolanish markazlari, ilmiy, sportva savdo markazlari, mavsumiy tovarlarni sotilishi hamda milliy bayramlar ham qiziqtiradi.

Turizmning mahalliy aholi hamda xorijiy fuqorolarning mazkur mamlakat(mintaqa)larning tarixi, tarixiy arxitektura obektlarlari, mahalliy aholining urf-odatlarini, an‘analari bo‘yicha intellektual salohiyatini oshirishi, ularning dam olishi, davolanishi orqali mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ijobiy ta‘sir etib kelmoqda. Turizm iqtisodiyot, jamiyat hamda tabiat bilan hamohang tarzda rivojlanadi.

Turistik marshrutlar odatda bir necha shaharlardan o‘tadi va eng mashhur yodgorliklar bilan tanishish imkonini beradi. Bunga Germaniya bo‘ylab nom qozongan Kyoln – Bonn – Dyuseldorf–Frankfurt-na-Mayn–Nyurenberg–Myunxen, Italiyada Rim–Venetsiya–Florensiyayo‘nalishlarini ko‘rsatish mumkin. Bunday ko‘rinishdagi turizmni rivojlantirish uchun O‘zbekistonda yetarli imkoniyatlar mavjud.

Markaziy Osiyo ma‘muriy birliklar doirasida turizm sohasini tahlil qiladigan bo‘lsak, Yevropa mintaqasi tarkibiga kiruvchi (UNWTO bo‘yicha) Markaziy Osiyo davlatlarida (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston) ham turizm mustaqillikdan so‘ng eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. 2019-yilda Markaziy Osiyo davlatlari YAIM ning 5,2 foizi yoki 12,6 mlrd.AQSH dollarini tashkil etib, u 1,4 mln. kishini (5,3 foiz) ish bilan ta‘minlandi.

Bundan tashqari, jami eksportning 4,3 foiz, ya'ni 5,1 mlrd AQSH dollari turizm xissasiga to'g'ri kelgan.

Markaziy Osiyo o'zining go'zal manzaralari, ajoyib me'morchiligi, maftunkor tarixi va qadimiy ipak yo'llari bo'ylab sayohatlari bilan hammani o'ziga jalb eta oladi. YUNESKOning jahon moddiy va madaniy meros obyektlari ro'yhatiga Markaziy Osiyo davlatlaridan 18 ta: Qozog'istondan 5 ta, Qirg'izistondan 3 ta, Tojikistondan 2 ta, Turkmanistondan 3 ta, O'zbekistondan 5 ta (Xivadagi Ichan Qal'a 1990-yil, Buxoro shahrining tarixiy markazi 1993-yil, Shaxrizabz shahrining tarixiy markazi 2000-yil, Samarqand shahri 2001-yil va G'arbiy Tyan-Shan 2016-yil) kirgan bo'lib, ular noyob madaniy meros obyektlari, o'ziga xos an'analar, ekotizimlarning xilma-xilligidadir.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy birliklari darajasida turizm sohasini tahlil qilib, quyidagilarni ko'rish mumkin. O'zbekistonda 8208 ta tabiiy va madaniy meros obyektlari mavjud. Ulardan 4748 tasi arxeologik, 2250 tasi arxitektura, 678 tasi monumental va 532 tasi diqqatga sazovor joylardir¹. Yuqoridagi tabiiy va madaniy meros obyektlari O'zbekiston ma'muriy-hududiy birliklari bo'ylab turlicha taqsimlangan (1.2.1-jadval).

Respublikada 6 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, 6 ta tabiat bog'i, 2 ta milliy bog', 11 ta tabiat yodgorligi, 2 ta biosfera rezervati, 12 ta buyurtma qo'riqxonasi, 1 ta Jayron maxsus pitomnigi mavjud. Ularning umumiy maydoni 3,521 mln. gektarni tashkil etadi². Shu bilan birga 100 ta muzey va 509 ta sanatoriya-kurort muassasalari va dam olish maskanlari hamda boshqa ko'plab sayyohlarni jalb qila oladigan obyektlar mavjud³. Ammo turizm bozori talabini qondirish iqtisodiyotning ushbu sohasida innovatsion yondashuvni talab qiladi.


O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning aksariyat qismi Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Bunga sabab, bu hududlarda turistlarni o'ziga jalb etuvchi mashhur tarixiy arxitektura turistik obyektlarning borligi va sonining ko'pligi bilan ifodalanadi.

¹Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qaroriga 1-ilova

²<https://www.uznature.uz>

³<https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

O‘zbekiston Respublikasining tabiiy va madaniy meros obyektlarining
ma‘muriy-hududiy birliklari bo‘ylab tarqalishi



Yuqoridagi imkoniyatlarni inobatga olgan holda, *ma'muriy birliklar doirasida turizmni rivojlantirish orqali quyidagilarga erishiladi:*

✓ *Milliy daromadni ko'paytiradi, ya'ni turistik tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish boshqa tarmoqlar hamda sohalar faoliyati bilan birgalikda milliy mahsulotlar shakillantiradi;*

✓ *tovar va xizmatlarga bo'lgan ikkilamchi talabni qondirish orqali turdosh iqtisodiyot tarmoqlarining rentabelligini oshiradi;*

✓ *yangi ish o'rinlari yaratiladi, ya'nimehmonxona xo'jaligi, ovqatlanish korxonalarini, sanatoriya-kurort tarmoqlari kabi servis va ishlab chiqarish sohasining o'nlab yo'nalishlari uchun ish o'rinlari yaratiladi;*

✓ *davlat byudjeti va nodavlat sektorga valyuta tushumi ortadi, ya'ni turistik tovarlar va xizmatlar eksport orqali valyuta oqimi mamlakat tomon yo'naltiriladi;*

✓ *mahalliy aholining farovonligi oshadi*, ya'ni mahalliy infrastrukturaning rivojlanishiga imkon yaratadi, aholining daromadlari ko'payadi;

✓ *mintaqaviy rivojlanishni tenglashadi*, ya'ni mintaqa va mamlakatlarga milliy foydani qayta taqsimlash imkoniyati yaratiladi, aholisi kam va sanoati past darajada rivojlanayotgan, lekin o'zining tabiati, tarixiy-madaniy jozibador obektlardan oqilona foydalaniladi;

✓ *Milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun asos yaratiladi*, turizm tarmog'ining dinamik ravishda rivojlanishi va qulay investitsion vaziyatni yuzaga kelishi sarflangan mablag'larning qoplanishini ta'minlaydi va h.k.

Xulosa qilib aytganda, turizm industryasini ma'muriy birliklar doirasida, jamiyat boshqaruvini samarali olib borish, hududlarni barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Viloyatning yer maydoni 4,3 ming km² ni tashkil etadi. Ma'muriy markazi Guliston shahri. Aholi soni 829,9 ming kishidan ortiq (01.01.2019-yil). Ma'muriy tuzilishi 8 ta tuman, 5 ta shahar va 25 ta shaharchadan iborat. Yirik shaharlari: Guliston, Yangiyer, Sirdaryo, Shirin.

Viloyat tarixi.Sirdaryo vohasi qadimdan muhim geografik hudud bo'lib, bu yerdan So'g'd, Choch, Farg'onani bog'lovchi yo'llar kesishmasi o'tgan. Viloyat hududidagi eng qadimgi aholi manzilgohlari sug'orish uchun qulay bo'lgan daryo va soy bo'ylarida paydo bo'lgan. Dastlabki aholi viloyat hududidagi Xo'jamushkentsoy, Sho'rbuloqsoy, Mo'g'olsoy, Tog'obsoy, Sarmichsoy, Sirdaryo bo'ylarida istiqomat qilgan. Arxeologik tadqiqotlar dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Xo'jamushkentsoy va Sho'rbuloqsoy bo'ylarida bundan 3000-yil oldin paydo bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Bu tabiiy, chunki yuqoridagi soylar sersuv, ularning atrofidagi yerlar unumdor bo'lgan. Sho'rbuloqsoy bo'yida joylashgan yodgorliklar ichida eng qadimgilari Eski Xovos va Nurtepa yodgorliklari hisoblanadi. Ular miloddan avvalgi bir ming yillik o'rtalarida qad ko'targan.

Sirdaryo viloyati hududida arab geograflari tomonidan eslatib o'tilgan ikkita manzilgoh bor. Bu Sabat va Xovosdir. Xovos shu nomdagi ruslarning markazi bo'lgan. Yozma manbalarda u haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Arab geograflari esa uni faqat karvon yo'llari chorrahasidagi manzilgoh sifatida tilga olishadi. Ibn Xavqal Xovos yo'li haqida,– «Agarda kim Zomindan Xo'jandga Xovos yo'lidan bormoqchi bo'lsa, uning yo'lida Kurkat uchraydi»,–degan ma'lumot qoldirgan. V.V.Bartold esa Chirchiq vodiysiga ikkita yo'l olib borganligi, biri Xovosdan, ikkinchisi Jizzaxdan, deb yozadi. Xovosning Ustrushona shaharlari qatori tilga olinmaganligi, o'sha davrda u qishloq bo'lganligidan dalolat beradi.

XI-asr boshida Xovos haqidagi Somoniylar sulolasining so'nggi vakili Muntasir (Abu Ibrohim Ismoil Ibn Nuh) va qoraxoniylar orasida bo'lgan jang bilan bog'langan holda gapiriladi. Yoqutning yozishicha (XIII asr) «Xovos – Ustrushonadagi qishloq».

Sirdaryo viloyatining shimoliy sharqida Shosh va Ustrushona chegarasida yana bir oʻrta asrlar davriga oid shahar boʻlgan. U yozma manbalarda tilga olinmaydi. Uning qoldiqlari Nurota yodgorligidir. Bu yerdan topilgan boʻyoqlangan sopol idishlar uning Shosh bilan aloqalari rivojlanganligidan dalolat beradi. Ularda Shosh sopolchilik maktabining taʼsiri koʻrinadi. Bundan tashqari, unda topilgan numizmatik topilmalar Shoshda chiqarilgan. Boshqa tomondan yesa Ustrushona materiallari bilan aloqalari koʻrinadi, jumladan, Kultepaning somoniylar davri kompleksi bilan (Sabat) Sabatdan Xovos orqali Shoshga olib boradigan yoʻl Nurotadan oʻtgan.

Hozirgi kunda Nurota yodgorligidan arkning qismi saqlanib qolgan, xolos. Movarounnahrda janubiy viloyatlarni shimoliy viloyatlar bilan bogʻlab turgan serqatnov karvon yoʻli joylashganligi sababli, shahar gullab yashnagan. Ibn Xoʻrdodbehning yozishicha bu yoʻl «Xovosdan Ash-shosh daryosi qirgʻogʻigacha 9 farsah, soʻngra koʻprikdan Banokatga oʻtiladi», deb arab geograflari tomonidan eslatib oʻtiladi.

Viloyat tarixi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklardan biri Sardoba tumani hududida joylashgan Sardoba yodgorligidir. Sardoba forscha (sard –sovuq, zah hamda ob –suv) «muzdek suv» degan maʼnoni anglatadi. Sardobalar karvon yoʻllarida qurilgan va ipak yoʻladagi karvonlarni suvga boʻlgan ehtiyojini qondirgan. Ular hanuzgacha oʻz jozibadorligini yoʻqiotmagan va ichki hamda tashqi turizmni rivojlantirishning asosiy obyektlaridan boʻlib hisoblanadi (2.1.2-rasm). Oʻtgan asr tarixchilarining yozishicha, yogʻochli sardobasi yaqinida karvonsaroy hamda bogʻ-rogʻlar boʻlgan. Sardoba gumbazsimon koʻrinishga ega. U nihoyatda sifatli gʻishtdan qurilgan. Gʻishtlar kvadrat shaklida boʻlib, ularning hajmi 25x25x5sm dir. Gumbazning ichki diametri 15 metr, balandligi 12 metrni tashkil etadi. Ichki qismida 2 metr balandlikda yopiq, uyasimon tuynuklar joylashgan. Oʻtgan asrda sardoba ichida Yevropaliklar tomonidan quduq qazilgan. Ushbu quduqning devorlari yogʻoch bilan oʻralgan. Sardoba devorining qalinligi pastki qismida 1,5 metrni tashkil etsa, yuqoriga koʻtarilgan sari yupqalashib boradi. Eng yuqori qismida uning qalinligi bir gʻisht koʻrinishida boʻladi. Suvning aynib qolmasligi uchun sardobada uchta maxsus ventilyatsion tuynuklar oʻrnatilgan. Gumbazning yuqori



2.1.2-rasm. Sirdaryo viloyatidagi sardobalarda o‘tkazilayotgan an’anaviy turistik bayramlar

qismi ham shu maqsadda ochiq qoldirilgan. Shu sababli ham sardoba suvi muzdek, toza va tiniq bo‘lgan.

Viloyatda yerni kompleks o‘zlashtirish ilk bor XX asrning 50-yillarda amalga oshirilgan. Asrlar davomida kimsasiz, to‘qay va butazorlardan iborat Mirzacho‘l hududida o‘zlashtirish ishlari natijasida obod shahar va qishloqlar, sug‘orish inshootlari, ishlab chiqarish korxonalarini va hokazolar bunyod etilgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng Sirdaryo viloyatida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Viloyat hududidan «Toshkent-Termiz» Katta O‘zbek Trakti o‘tgan. Mustaqillik yillarida viloyatda qurilish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik bosh maydonining rekonstruksiyasi, Xotira maydoni, Markaziy va tijorat banklari binolari, Birja va Biznes markazlari, «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi, «Kemping» tipidagi majmua, zamonaviy vokzal, ko‘p qavatli turar-joy binolari, «Alpomish» sport saroyi, Boks saroyi, Markaziy o‘yingoh, Suzish havzasi va boshqa sport komplekslari bunyod yetildi.

Viloyat tabiati. Sirdaryo viloyati O‘zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, Sirdaryoning chap qorg‘og‘idan boshlanuvchi

Mirzacho‘lning kattagina maydonini egallagan. Bugungi kunda Mirzacho‘lning tabiiy holati hisobga olinadigan bo‘lsa, uni cho‘l deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Aslida u bahorda unib chiqib, yozda qurib qoladigan turli-tuman o‘simliklar o‘sovchi gil tuproqli pasttekislikdir. Uning ba‘zi joylarida qamishzor va taroqsimon bargli o‘simliklar uchraydi. Bahor va yoz oylarida, ayniqsa, janubi-sharqiy qismida tez-tez yoqimsiz garmsel shamoli esib turadi.

Olis o‘tmishda hozirgi Sirdaryo viloyati hududidan, ya’ni Mirzacho‘l orqali Buyuk ipak yo‘lisavdogarlarning karvon yo‘llari o‘tgan. Poyonsiz cho‘lda sayg‘oqlar poda-poda bo‘lib yurgan. O‘sha paytlarda otabobolarimiz cho‘l sharoitda qanday yashashni, karvonlar uchun poyonsiz kengliklarda to‘xtab o‘tish va hordiq chiqarish maskanlari bunyod etishni yaxshi bilganlar. Buning uchun irrigatsiyaning o‘ta noyob usullari qo‘lanilganki, endilikda «sardoba» deb ataluvchi bunday tabiiy-madaniy va me‘morchilik durdonalaridan ba‘zilari viloyat hududida yaxshi saqlanib qolgan. Sirdaryoliklar suv qadrini yaxshi bilganliklari uchun ham muzdekkina suv oylab yaxshi saqlanadigan bunday obidalarni asrab-avaylash bilan birga, viloyatdagi tumanlardan birini ham Sardoba tumani deb ataydilar.

Viloyat hududi tabiatining o‘tmishi va buguni o‘rtasida juda keskin farq bor. Chunki, inson omili tufayli Mirzacho‘lga madaniy dehqonchilik jadal sur‘atlarda kirib kelgani, uning tabiati bioxilma-xilligiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatdi. Bir paytlar poyonsiz kengliklarda o‘tib yotgan cho‘lning yovvoyi o‘simliklari bugun o‘z o‘rnini madaniy o‘simliklarga bo‘shatib berdi. Paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilikda juda katta yutuqlar qo‘lga kiritilib, endilikda Sirdaryoda yetishtirilayotgan poliz mahsulotlarining dovrug‘i, mamlakatimiz tashqarisida ham ma’lum va mashhurdir. Bu o‘rinda ayniqsa «qovun sayli» tashqi turizm ko‘rsatkichlarini keskin ravishda oshrishga xizmat qiladigan an’analaridan biridir (2.1.3-rasm).

Viloyatning umumiy maydoni 427,6 ming gektarni tashkil etib, uning qariyb 60 foizida dehqonchilik qilinadi. Bir foizga yaqin maydoni



2.1.3-rasm. Sirdaryo viloyatida «Qovun sayli» bayrami

oʻrmonzorlardan iborat boʻlsa, 5 foizini yaylov tashkil qiladi¹.

Viloyat hududida qish qattiq kelmaydi. Shunday boʻlsada, baʼzi holatlarda harorat -34 darajagacha tushishi mumkin. Yozi esa quruq va issiq boʻlib, harorat +42+45 darajagacha koʻtariladi.

Suv zaxiralari cheklangan boʻlib, viloyatning asosiy obi-hayot manbai Sirdaryo va undan poyonsiz tekisliklar orqali oʻtgan sunʼiy kanallar hisoblanadi. Bundan tashqari viloyat hududida bir qator koʻllar va sunʼiy suv havzalari mavjud, ularda 20 xildan ziyod baliq yetishtiriladi.

Viloyat hududida 10 ga yaqin zilol suvli tabiiy buloq ham roʻyxatga olingan boʻlib, ulardan Xoʻjamushkent, Sagʻanoq, Sarmich, Tojikiston Respublikasi chegarasiga yaqin joydagi Oʻratepa buloqlari alohida oʻrin tutadi.

Viloyat hududida bitta muhofaza etiladigan hudud mavjud. U ham boʻlsa, Sirdaryo boʻyidagi toʻqayzorlarda 1995-yili tashkil etilgan va noyob yovvoyi qushlarni koʻpaytirishga ixtisoslashgan «Sayxun» xoʻjaligidir. Xoʻjalik faoliyati yovvoyi oʻrdak va gʻozlarni koʻpaytirishdan tashqari 382 gektar maydondagi toʻqayzorlarni ham asl holatda saqlab qolishga yoʻnaltirilgan. Bu yerda Oʻzbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan 30 xildan ortiq daraxtsimon va

¹*Oʻzbekiston tabiati.* Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qoʻmitasi, Oʻzbekiston ekologik harakati; tuzuvchilar: B.Alixonov, T.Abdullayev, T.Oripov [va boshq.] – T.: «Chinor ENK», 2011, 276b.

butasimono‘simliklar o‘sadi, dasht qora iloni, to‘ng‘iz, shoqol, Sirdaryo qirg‘ovuli kabi 20 xildan ziyod yovvoyi parranda qo‘nim topgan.

Bahor faslida Sirdaryoning suvi ko‘payib, viloyatni Qozog‘iston Respublikasi bilan chegaradosh hududlari suvda suzuvchi qushlar uchun ajoyib maskanlarga aylanadi. Ana shu davrda bu erga o‘n minglab suvda suzuvchi qushlar hordiq chiqarish uchun qo‘nadilar. Ular orasida, Qizil kitobga kiritilgan noyob qushlardan – Qoshiqburun, Vishildoq oqqush, Pushti saqoqush, Jingalak saqoqush, Olaqanot, Marmar churraklarni uchratish mumkin.

Faqat Sirdaryo viloyati hududi uchun xos bo‘lgan Qizil kitobga kiritilgan Malign baliqqo‘zi, Qora sirttan noyob o‘simliklar o‘sadi. Shuningdek, Oq sazan, Turkiston mo‘ylabdori, Ko‘ndalang yo‘lli bo‘ritish, Olaqanot, Ilonburgut, Dasht burguti, Burgut kabi Qizil kitobga kiritilgan jonzo‘tlar yashaydi. Ulardan Bogdanov yirtqichi faqat ushbu hudud uchun xos hisoblanadi. Shuning uchun ham viloyatning Sirdaryo bo‘yidagi to‘qayzorlari ekoturizmni rivojlantirish uchun juda qulaydir.

Viloyat hududi qurilish ashyolarining kattagina zaxirasi turizm industriyasini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Viloyatning turistik imkoniyatlari. Bugungi kunda, turizimning hayotimizda naqadar muhim o‘rin tutib, davlat miqyosida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanayotganini, sohada olib borilayotgan o‘zgarishlar, qabul qilinayotgan qonunlar, turizimni rivojlantirish davlat qo‘mitasining tashkil etilishi kabi islohotlarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Hozirgi kunda, Sirdaryo viloyati hududida 78 ta turistik obyekt ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 18 tasi arxeologik, 15 tasi arxitektura va 41 tasi monumental san‘at yodgorliklari hamda 4 tasi diqqatga sazovor joylardir¹.

Yuqoridagi turistik obyektlarni Sirdaryo viloyati ma‘muriy-hududiy birliklari bo‘yicha taxlil qilganda, quyidagilarni ko‘rish mumkin (2.1.1-jadval).

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi «Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida» 846-sonli qaroriga 1-ilova.

2.1.1-jadval

Sirdaryo viloyatining ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha obyektlarning turizm turlari bo'yicha taqsimlanishi

T/r	Mamuriy-hududiy birliklar	Turizm turlari				Jami
		<i>arxeologik</i>	<i>arxitektura</i>	<i>monumental</i>	<i>diqqatga sazovor joylar</i>	
1.	Sirdaryo	4	1	4	-	9
2.	Sayxunobod	6	-	-	-	6
3.	Guliston	1	3	1	-	5
4.	Oq oltin	1	-	4	-	5
5.	Sardoba	1	1	1	-	3
6.	Xavos	3	2	-	4	9
7.	Guliston shahri	1	8	18	-	27
8.	Boyovut	1	-	3	-	4
9.	Mirzobod	-	-	3	-	3
10.	Shirin sh.	-	-	2	-	2
11.	Yangiyer sh.	-	-	5	-	5
Jami		18	15	41	4	78

Viloyat turizm obyektlarining salmog'i bo'yicha Guliston shahri alohida o'rin tutadi. Shaharning viloyat turizm obyektlaridagi ulushi 34,6 foizni tashkil etadi. Undan keyingi o'rinda 11,5 foiz bilan Sirdaryo va Xovos tumanlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Lekin, qolgan tuman va shaharlarni hech birining salmog'i 10 foizga yetmaydi yoki bo'lmasa eng ko'pi bilan 6 ta turistik obyekt joylashganini ko'rish mumkin.

Viloyatda mehmonxona va shunga o'xshash turistlarni joylashtirish vositalarining umumiy soni 18 ta bo'lib, ulardagi joylar soni esa 1042 tani tashkil etadi.¹

Bundan tashqari, viloyatda 1 ta muzey, 1 ta teatr, 4 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Muzeyda turli eksponatlar fondi 1296ta bo'lib, shulardan: rassomlik 174 ta, numizmatika 199 ta, maishiy va etnografiya buyumlari 127 ta, amaliy san'at buyumlari 291 ta, suratlar 96 ta, arxeologiya buyumlari 358 ta, qadimgi rasmiy hujjatlar 7 tava boshqalar 44 tani tashkil etadi. Madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni

¹Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti.

14,6 gadan iborat. Ularda 30 tadan ortiq attraksionlar foydalanishga topshirilgan.

O‘zbekistan Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasining 2018-yil 13-sentabr kuni Sirdaryo viloyatida majlisi bo‘lib o‘tdi¹. Unda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan Sirdaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2019-yilning birinchi yarim yilida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobot berildi.

Sirdaryo viloyati mamlakatimizning markaziy qismida, mintaqamizdagi eng katta daryolardan birining bo‘yida joylashgan bo‘lib, hududda sayyohlikning ayrim turlari, ayniqsa agro-ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Shuni hisobga olgan holda, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan viloyatning mazkur yo‘nalishdagi salohiyatini oshirish yo‘lida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2019-yil birinchi yarim yilida 3 ta oilaviy mehmonxona, 5 ta restoran va kafe hamda bir necha turoperatorlik subyektlari tashkil etilib, turistik toifadagi mikroavtobus hamda elektromobillar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan.

Guliston temir yo‘l vokzali hamda «Shohruh» mehmonxonasi hududida turizm axborot markazlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, shaharda mehmonlar uchun Wi-Fi zonalarni tashkil etilgani katta qulayliklar yaratmoqda.

Viloyatning turistik salohiyatini ro‘yobga chiqarishda mehmon va sayyohlarni jalb qiluvchi jihatlar, xususan «Sharq ekzotikasi»ga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, viloyat hududidan o‘tuvchi avtomagistral yo‘l bo‘ylarida tuyachilikni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor va fermerlar tomonidan o‘tovlar qurilib, tuya suti va esdalik sovg‘alari sotuvi yo‘lga qo‘yilgan. Guliston shahrining turistik kartalari, turistik buklet, flayer va 500 dan ortiq risola ishlab chiqilib, tarqatildi. Turistik salohiyatni targ‘ib qiluvchi 22 ta targ‘ibot-reklama bannerlari o‘rnatildi. Bu kabi sa’y-harakatlar natijasida 2019-yil birinchi yarim yilida viloyatga 19650 dan ziyod sayyohlar tashrif buyurgan. Ulardan, 1720 nafari xorijiy


¹<https://www.uzreport.news/society/sirdaryo>

mamlakat vakillaridir. 2018-yilning birinchi yarim yilligiga nisbatan bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan.

Sirdaryo viloyatiga 2018-yilda 14786 nafardan ortiq, 2019-yilda 21341 nafar xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Shundan, 2018-yilda 2019 nafari, ya'ni 13 foiz, 2019-yilda 2297 nafari ya'ni 10 foiz xorijiy sayyohlar bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 3 foizga kamaygan.

2019-yil viloyatda turistik foyiatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 1 ta, xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 6601nafari yurtimiz fuqarolarini tashkil etdi.2019-yilda sotilgan jami sayyohlik yo'llanmalarining soni 60 tani, qiymati 397,2 mln. so'mni tashkil etdi. Viloyat hududida mehmonxona va shunga o'xshash sayyohlarni joylashtirish maskanlari umumiy soni 18 ta bo'lib, ulardagi o'rinlar soni 1042 tani tashkil etib, 2019-yilda ularda 21300 kishi joylashtirildi¹.

2019-yilda Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurgan shaxslar 21341 nafar bo'lib, shundan ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda 39,9 foiz, qarindoshlarini yo'qlash uchun 2,8 foiz, boshqa shaxsiy maqsadlarda 2,7 foiz, davolanish va sog'lig'ini tiklash maqsadida 0,2 foiz, tranzit 5,9 foiz hamda ta'lim va kasbiy tayyorgarlik uchun 0,2 foizni tashkil etgan (2.1.4-rasm).



2.1.4-rasm. Sirdaryo viloyatiga tashrif buyuruvchilarning safar maqsadlari (kishi)

¹<https://www.sirstat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2022>

Viloyatga tashrif buyurganlarning 1365 nafari O‘zbekiston fuqarolari bo‘lsa, 19044 nafari MDH mamlakatlari, qolgan 932 nafari esa uzoq xorij mamlakat fuqarolaridir.

Sirdaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishga bir qator omillar ta’sir qilib, ularning asosiylari 2.1.2-jadvalda aks ettirilgan.

2.1.2-jadval

Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va tuzilmaviy elementlari

<i>Asosiy omillar</i>	<i>Tuzilmaviy elementlar</i>
Turistik	<ul style="list-style-type: none"> • Tabiiygeografik. • Tarixiy-madaniy. • Zamonaviy turistik.
Ijtimoiy-iqtisodiy	<ul style="list-style-type: none"> • Turistik ehtiyojlarning qondirilishi. • Mahalliy ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik. • Turizmning rivojlangan turlari haqida ma’lumotlarning mavjudligi.
Tashkiliy-boshqaruv	<ul style="list-style-type: none"> • Mintaqada turistik faoliyatning tashkil etilishi va uning moliyalashtirilishi. • Turistik infratuzilmalarning rivojlanganligi. • Mintaqaning transport-logistik imkoniyatlari. • Turizmni rivojlantirishni mintaqaviy rejalashtirilishi va boshqarilishi. • Turistlar xavfsizligini ta’minlashi.

Turistik resurslar. Viloyat turizm sohasini rivojlantirishda poydevor vazifasini turistik resurslar bajaradi (2.1.3-jadval).

Mana shunday beqiyos tabiiy-geografik, tarixiy-diniy, zamonaviy turistik resurslarga ega bo‘lgan Sirdaryo viloyati haqida dunyo ahlini xabardor qilish, bu yerga imkon qadar ko‘proq xorijiy sayyohlar va fuqarolarimizni jalb etish ushbu sohani rivojlantirishning dolzarb vazifalaridandir.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Xorijiy va mahalliy sayyohlarga turistik xizmatlarning hajmi 2018-yilda 2031,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2019-yilda 9,3 foizga oshib, 2726,8 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi.

Viloyatda turizm sohasini rivojlantirishda uning rivojlangan turlari haqidagi ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularni

amaliyotgatatbiq etish o‘ta muhim. Masalan, Sirdaryo viloyatida keyingi yillarda

2.1.3-jadval

Sirdaryo viloyatining turistik resurslarining hududiy taqsimlanishi

<i>Turistik resurslar</i>	<i>Tarkibi</i>	<i>Hududiy joylashuvi</i>
Tabiat komponentlari, boyliklari va biologik xilma-xillik	Cho‘l tabiati, relyefi, flora va faunasi	Viloyat bo‘yicha
Sirdaryo daryosi va uning havza resurslari	Daryo, uning sohilidagi turistik-rekretsion resurslari, daryo o‘zanidagi to‘qayzor, o‘rmon va boshqa o‘simliklar dunyosi	Boyovut, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo
Arxeologik turizm resurslari	Qadimiy qal’alar, arxeologik topilmalar	Sirdaryo, Sayxunobod, Guliston, Oq oltin, Sardoba, Xovos, Boyovut hamda Guliston sh.
Tarixiy turizm resurslari	Tarixiy obidalar	Sirdaryo, Guliston, Sardoba, Xovos va Guliston sh.
Diniy turizm resurslari	Diniy muqaddas qadamjoylar	Xovos

zamonaviy turizm turlaridan ekoturizm, rekreatsion turizm va agroturizm keng tarmoq otmoqda. Qolaversa, ushbu zamonaviy turdagi turistik xizmatlarni rivojlantirish uchun viloyatda barcha imkoniyatlar mavjud.

Tashkiliy-boshqaruv omillar. Mintaqada turistik faoliyatning tashkil etilishi va uni moliyalashtirish omilini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Xususan, bu borada Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida respublikaning barcha viloyatlarida zamonaviy jahon standartlari, turistlarning ehtiyoji va talablariga javob beradigan turizm industriya obyektlarini barpo etish, umumiy ovqatlanish obyektlarini qurish, transport-logistika tuzilmalarini yaratish, axborot-kommunikatsion markazlarni ochish, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya hamda yo‘lbo‘yi infratuzilmasini jadal

qurish, rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish orqali moliyalashtirish kabi yoʻnalishlar belgilab berilgan¹.

Sirdaryo viloyati turizm obyektlari soni boʻyicha Respublikaning boshqa viloyatlardan orqadaligini inobatga oladigan boʻlsak, turizmning bor imkoniyatlaridan samarali va toʻlaqonli foydalangan xolda rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda, viloyatda 4 ta ekoturizm obyektlari (Barxan, Ali, Kalgansir, Kalgansir davlat oʻrmon-ov xoʻjaligi), «Koʻhna Xovos» tepaligi ziyoratgohi hamda undagi muqaddas maqbaralar, «Yogʻochli Sardoba» gumbazi tarixiy obidalari mavjud boʻlib, ular yil davomida mahalliy va xorijiy sayyohlarning diqqat eʼtiborida.

«Barxan» dam olish maskani. (Asalchi qoʻrgʻoni) «Barxan» MCHJ 2004-yildan buyon qonuniy ravishda faoliyatini boshlagan. Uning hududi 13 gektarni tashkil etadi. Hududda 3 ta dam olish korpusi mavjud boʻlib, jami 12 ta xorijiy va mahalliy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, daryo boʻyida ham jami 80-90 kishilik dam olish joylari hamda 3 gektar yerga mevali bogʻ barpo etilgan. Bogʻda oʻrik, bexi, anor, olxoʻri, tut, uzum, olcha, gilos kabi daraxtlari ekilgan boʻlib, ular tashrif buyurgan mehmonlarga tortiq etilmoqda. Sayyohlar maroqli dam olish uchun baliq ovlaydigan maxsus baliq hovuzi, daryo boʻyida baliq ovlash, katerda sayr qilish, bilyard stoli, stol tennisi, voleybol maydoni, 20x40 futbol maydoni barpo etilgan.

«Kalgansir» davlat oʻrmon-ov xoʻjaligi. «Kalgansir» MCHJ Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrmon xoʻjaligining 2017-yil 3-martdagi 36-sonli boʻyruqiga asosan qayta tashkil etilgan yer maydoni 5294 gektar, shundan, oʻrmon bilan qoplangani 1064 gektarni tashkil etadi. Hudud Sirdaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan boʻlib, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun oʻtov va vagon domiklar barpo etilgan. Shuningdek, dam olish maskani, baliq ovlash, ov mavsumida yovvoyi choʻchqa (kaban), qirgʻovul (fazan),

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabr «Oʻzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-4861-son farmoni.

yovvoyi o‘rdak, g‘oz va boshqa parrandalarni ov qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan¹.

«Ko‘xna Xovos» tepaligi ziyoratgohi. Viloyat hududidagi eng qadimiy shaharlardan biri – Xovos. Bu shahar qadimda zilzilalar orqali buzilib, vayronaga aylangan va ko‘milib ketgan. Endilikda uning o‘rnida Xovos tumani markazi yaqinida joylashgan mahobatli Xovostepa yodgorligi qad rostlab turibdi. Shahar qadimda katta hududni egallagan. Hozirgi kunda uning 1 gektardan ziyod arka qismi, 11 gektarlik tepalik ostida vayron holda saqlanib qolgan. Shahristonning ba‘zi joylari va rabotlari yo‘q bo‘lib ketgan. Xovos nihoyatda qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, u kamida 2400-2500-yillik tarixga ega. Shuning uchun u nafaqat Sirdaryo viloyatidagi, balki mamlakatimizdagi ko‘hna shaharlardan biri, deb e’tirof etiladi².

Tarixchi olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra Xovosda 28 ta tabarruk qadamjoy bo‘lgan. Endilikda ulardan 12 tasi saqlanib qolgan. Shulardan biri **«Xasti buzurgon» ziyoratgohi** sanaladi. Ziyoratgohda «Xasti buzurg» laqabi bilan ulug‘langan Jobir boboning qabri joylashgan. Rivoyat qilishlaricha, Jobir bobo Xovos mintaqasiga Islom dinini targ‘ib qilish uchun kelgan. Bu inson Xovosni obod qilishda qatnashgan va xalq o‘rtasida ilm-ma’rifat tarqatgan. Shu sababli «Xasti buzurg» deya ulug‘langan³.

«Bibi ocha» ziyoratgohi Jobir boboning turmush o‘rtog‘i Bibi Xadicha dafn etilgan. Bu yerda ona yoki buviga ocha deya murojaat qilishgani sababli u kishi Bibi ocha nomini olgan⁴.

«Yusufbobo» ziyoratgohi qadimdan temirchilik bilan shug‘ullangan va tabiblik qilgan, keyinchalik temirchilar piri deb ulug‘langan Yusufbobo maqbarasi mavjud⁵.

¹<https://uzbekistan.travel/ru/o/kalgansyr-centr-ohotnichego-promysla-v-syrdarinskoj-oblasti>.

²O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar / To‘plam.Mas’ul muharrir F.A.Maksudov. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi. – Samarqand, 2020. – 335 b.

³<https://yuz.uz/news/xovosobod-qishlogiga-turizm-qishlogi-maqomi-beriladi>.

⁴<https://yuz.uz/news/xovosobod-qishlogiga-turizm-qishlogi-maqomi-beriladi>.

⁵<https://yuz.uz/news/xovosobod-qishlogiga-turizm-qishlogi-maqomi-beriladi>.

«*Sherbobo*» *maqbarasi* olis o'tmishda Xovosni dushmanlardan himoya qilgan, himoyachilarga bosh bo'lgan Ibrohim ismli sheryurak inson dafn etilgan¹.

Qadimiy «Namozgoh» masjidini xovosliklar Jobir boboning yetuk va donishmand farzandlaridanbiri «*Sa'du Sa'id*»(Sayyidlarning ulug'i) sharafiga nomlangan. Bu ziyoratgohlarning aksariyati bugungi kunda obod maskanlarga aylantirilgan².

«*Yog'ochli Sardoba*» *gumbazi* Sardoba tumanidagi «Toshkent-Samarqand-Buxoro» shaharlarini bog'lovchi avtomagistral yo'l yoqasida joylashganligi uchun ham yo'lovchilar uchun juda qiziqarlidir. Sardoba haqidagi ilk ma'lumotlar Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» asarida keltirilgan. Buxoro xoni Abdullaxon II Toshkentga yurishi chog'ida shu hududda hordiq chiqarish uchun to'xtab, suvsizlikdan qiynalgan askarlari uchun sardoba va karvonsaroy qurishni buyuradi. Inshootning g'ishtlari kvadrat shaklda bo'lib, gumbazning ichki diametri 15 va balandligi esa 12 metrni tashkil qiladi. Sardobaning ichki qismida yerdan 2 metr balandlikda yopiq, uyasimon tuynuklar joylashgan. Devorining qalinligi pastki qismida 1,5 metrni, yuqoriga ko'tarilgan sari yupqalashib boradi va eng yuqori qismida uning qalinligi bir g'isht ko'rinishiga ega.Unga faqatgina shimol tarafdin, qolgan uch tarafida ark ko'rinishidagi tuynuklar mavjud. Kirish arkasimon shakldagi g'ishtli zinapoyalar orqali sardoba ichkarisiga o'tilgan.

2.2. Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning kelajak istiqbollari

Respublika mustaqilligining ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shug'ullanuvchi subyektlarga imtiyozlar yaratish, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan davom ettirilmoqda.

Prezidentimiz 2019-yil 5-yanvarda «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5611-sonli qarorida «2019–2025-yillarda O'zbekiston

¹<https://yuz.uz/news/xovosobod-qishlogiga-turizm-qishlogi-maqomi-beriladi>.

²<https://yuz.uz/news/xovosobod-qishlogiga-turizm-qishlogi-maqomi-beriladi>

Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsyepsiyasi»ga muvofiq Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yoʻlovchilar soni va investitsiyalarni koʻpaytirish uchun transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash maqsadida xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida eʼtibor berilgan¹.

turizmni rivojlantirish respublikamizgajuda katta iqtisodiy samara berishi va valyuta olib kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, koʻpgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha koʻproq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan, Turkiya Respublikasi yiliga 4-5 mlrd. AQSH dollariga teng tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. AQSH dollaridan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniyalarda ham xuddi shunday yuqori moliyaviy koʻrsatkichlarni koʻrishimiz mumkin.

Mazkur soha kuzatuvchilari turizm iqtisodiy rivojlanishning drayveri – harakatlantiruvchi kuchi ekani haqida yakdil fikr bildirmoqda. U yangi ish oʻrinlariga zamin yaratish barobarida (ICAO maʼlumotiga koʻra, 2017-yilda har 10 ish oʻrnining bittasi shu sohaga tegishli boʻlgan) ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qoʻshadi. Turizm xizmat koʻrsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni ragʻbatlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivaning xushmanzara koʻchalaridagi kichik hunarmandchilik doʻkonlarigacha boʻlgan infratuzilmani qamrab oladi. U insonlarda iqtisodiy koʻnikmalarni oshiradi, bilim ufqlarini kengaytiradi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda, jumladan, eng rivojlangan 10 ta mamlakatda butun saʼy-harakatlar chet ellik sayyohlarni jalb etishga qaratilmoqda. Turizm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, ayniqsa, pul oqimini oshirishda foydali boʻlishi hammaga maʼlum².

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustda«Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 farmoni. <https://lex.uz>.

²<https://uzanalytics.com/iqtisodi>.

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonining asosiy maqsadi turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish, turizm tarmog‘ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko‘paytirishdir¹.

Farmonda Respublikaturizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ruspublikaning barcha hududlarida, jumladan Sirdaryo viloyatida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ham ko‘rsatib o‘tilgan (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Sirdaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha»YO‘L XARITASI»

T/r	Tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas‘ullar	Nazorat uchun mas‘ul
II. Turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini ta‘minlash va turizm xizmatlari sifatini oshirish				
1.	Respublikada oldingi maxsus turistik zonalarning muvaffaqiyatli loyihalashtirilganligini inobatga olgan holda Sirdaryo viloyati Do‘stlik kanali bo‘yidagi kichik turistik zona rejasini ishlab chiqish uchun xalqaro kompaniyalarni jalb etish	2019-yil sentabr	Sirdaryo viloyat hokimligi (G‘. Mirzayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduhakimov)

Shu bilan birga farmonning 5-ilovasida turistik yo‘nalishlar bo‘ylab avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilishda Sirdaryo viloyati bo‘yicha ham bir qator investitsion takliflar berilgan (2.2.2-jadval).

Viloyatning ma‘muriy-hududiy birliklarida turizm sohasini rivojlantirish maqsadida 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan chora-

¹<https://lex.uz/docs/4474527>

tadbirlari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda turizm bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tarmoq sohalariga e‘tibor qaratilgan (2.2.3-jadval).

2.2.2-jadval

Sirdaryo viloyatining turistik yo‘nalishlari bo‘ylab avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha investitsion takliflar

<i>T/r</i>	<i>Avtomobil yo‘llari, manzili, bajariladigan ishlar</i>	<i>Masofa, km</i>
		<i>2021 y.</i>
	Respublika bo‘yicha jami:	629,2
	Sirdaryo viloyati	78
1.	Guliston — Xovos — Zomin avtomobil yo‘lining «Xovosobod» ziyoratgohi (Xovos tumani) qismini rekonstruksiya qilish.	25
2.	Guliston shahri — Guliston tumani avtomobil yo‘lining «Romanovlar» cherkovi va uyi (Guliston tumani) qismini rekonstruksiya qilish.	25
3.	Baxt — Sayxunobod avtomobil yo‘lining «Nurota shaharchasi qoldig‘i» tarixiy joyi (Sayxunobod tumani) qismini rekonstruksiya qilish.	20
4.	M-39 Toshkent — Termiz — Toshkent avtomobil yo‘lining «Mirzarabot tepaligi» tarixiy joyi (Oqoltin tumani) qismini rekonstruksiya qilish.	6

2.2.3-jadval

Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2021-2022-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar

<i>T/r</i>	<i>Chora-tadbirlar</i>
1.	2021-2022-yillar davomida viloyatdan o‘tuvchi M-34, M-39 avtomagistral yo‘l bo‘yida infratuzilmani rivojlantirish orqali turistik obyektlarni barpo etish. Jumladan, 2021-yilda M-34 va M-39 xalqaro avtomagistral yo‘l bo‘ylarida zamonaviy kemping, mehmonxonalar, savdo do‘konlari, xostel, motel, biotualetlar va maxsus avtoturargohlar barpo yetish choralari ko‘rish.
2.	Xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun dam olish maskanlari, zamonaviy kemping, savdo shohobchalari (supermarket, suvenir do‘koni, qo‘l mehnati orqali yasalgan mahsulotlar do‘koni), sanitariya-gigiyena shohobchalari, ko‘ngilochar maskanlar barpo etish. Xususan, 2021-yilda «Ko‘hna Xovos» ziyoratgohi hamda jome masjidlari atrofida kichik muzey, suvenir va hunarmandlar do‘konlari, diniy ta‘lim beruvchi kitoblar savdosini yo‘lga qo‘yish. Yangi barpo etilgan obyektlarni turmarshrutlarga kiritish va piar ishlarini olib borish.
3.	2021-2022-yillar davomida viloyatda 5 ta mehmonxona va 10 dan ortiq

	oilaviy mehmon uylarini tashkil etish choralarini ko‘rish. Jumladan, 2021-yilda viloyatning Mirzaobod, Boyovut, Sayxunobod tumanlarida, shuningdek, Guliston, Shirin shaharlarida oilaviy mehmon uylarini tashkil etish.
4.	Turizm turlarini va ko‘rsatiladigan xizmatlarni yanada yaxshilash, sayyohlarning sonini 2 barobarga oshirish va qolish muddatlarini uzaytirish maqsadida viloyatda agro, tibbiyot va ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirish, ya’ni intensiv bog‘lar, zamonaviy tibbiyot muassasalari va Sirdaryo daryosi atrofida hamda dam olish maskanlarida (Barxan, Ali va Kalgansir) qo‘shimcha turistik obyektlar barpo etish. Jumladan, 2021-yilda viloyatda va daryo bo‘ylarida ekoturizm obyektlarini tashkil etish choralarini ko‘rish. Xovos tumanidagi «Xovosobod» mahalla fuqarolar yig‘iniga «Turizm qishlog‘i» maqomini berish choralarini ko‘rish hamda «Baliqchilar» va «Ovchilar» uyushmasi bilan hamkorlikda ekoturizm maskanlarini tashkil etish.
5.	Viloyatda 2021-2022-yillar davomida tibbiyot turizmini yanada rivojlantirish choralarini ko‘rish orqali Guliston shahri hududida "Shoxrux-demirbek" MCHJ tomonidan ko‘p tarmoqli xususiy klinika hamda "O‘rta sharq invest" MCHJ tomonidan xususiy klinika va aholiga diagnostika markazini tashkil etish.
6.	2021-2022-yillar davomida Guliston shahri Istirohat bog‘i hududidan Do‘stlik kanali hududigacha bo‘lgan masofada hamda Sirdaryo tumanidagi O‘zbekiston – Xitoy «Do‘stlik bog‘i» hududida osma dor yo‘li (kanatnaya doroga) loyihasi taklifini ishlab chiqish va amalga oshirish choralarini ko‘rish.

Manba: Sirdaryo viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi ma’lumotlari

Shu bilan bir qatorda mahalliy aholi daromadi ko‘payib, budjetga tushum darajasini oshirish maqsadida Sirdaryo viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi bilan birgalikda turizm turlari bo‘yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Tibbiyot turizm yo‘nalishida zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan tibbiyot muassasalari, tuyachilikni rivojlantirish orqali tuya suti va qumron mahsulotlarini ko‘paytirish, urologiya va zamonaviy diagnostika maskanlarini barpo etish rejalashtirilgan. Qo‘shni viloyatlardan dam olish va sog‘lig‘ini tiklash maqsadida tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun sog‘lomlashtirish maskanlaridan samarali foydalanish orqali tibbiy turizmni, xususan klinikalar faoliyatini yanada rivojlantirish choralarini ko‘rilish orqali viloyatga zamonaviy jihozlar va asbob-uskunalar keltirilib, yangi ish o‘rinlari yaratish. Masalan, viloyatda joylashgan viloyat Ko‘z

kasalliklari dispanseriga qo'shni Qozog'iston va Tojikiston respublikalaridan bir necha ming sayyohlar o'z sog'lig'ini tiklash maqsadida tashrif buyurmoqda.

Ekoturizm yo'nalishida Sirdaryo daryosi bo'yida hamda «Barxan», «Chinor», «Kalgansir» dam olish maskanlarida qo'shimcha kottejlar, biotualetlar hamda bolalar uchun ko'ngilochar, o'yin maydonchalari, otlarda sayr qilish joylarini tashkil etish. Sirdaryo tumanining xushmanzara joyidan oqib o'tuvchi Sirdaryo daryosi yoqasida xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun baliq ovlash va ovchilik yo'nalishini rivojlantirish natijasida viloyatga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish va mavsumiy ish o'rinlarini yaratish. «Kalgansir» davlat o'rmon-ov xo'jaligida «Elektroapparat zavodi» MCHJ tomonidan 350 gektar yer maydonida umumiy loyiha qiymati 404,0 mlrd. so'mlik ekodam olish maskani barpo etish.

Ziyorat turizmi yo'nalishida «Ko'hna Xovos» arxeologik yodgorligini respublika va chet el OAVda, ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilish va sayyohlar oqimini ko'paytirish. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda «Ko'hna Xovos» arxeologik yodgorligini YUNESKOning Butun jahon madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritish choralarini ko'rish. Guliston davlat universiteti tarix fani professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda viloyatda qo'shimcha ziyoratgoh maskanlanlarni aniqlash ustida keng izlanishlar olib borish.

Xovos tumani hokimligi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda «Ko'hna Xovos» arxeologik yodgorligi hududiga yaqin hududda xorijiy va mahalliy sayyohlarni uzoq muddat olib qolish maqsadida o'zbekona urf-odatlar asosida barpo etilgan oilaviy mehmon uylari, suvenir do'konlar, milliy azaliy va yo'qolib borayotgan taomlarni tayyorlaydigan «O'zbek oshxonasi»ni tashkil etish. Respublikadagi barcha faol turoperatorlar bilan aloqalar o'rnatib, «Ko'hna Xovos» arxeologik yodgorligini turmarshrutlarga kiritish. Respublikadagi faol turoperatorlar bilan ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish. Shu bilan birga, infratuzilma, jumladan mehmonxona xizmati, ovqatlanish shohobchalari, ko'ngilochar maskanlar tashkil etish va yodgorlik M-34 avtomagistral yo'l bo'yida joylashganligini hisobga olib, katta yo'l bo'yiga

katta hajmdagi LED ekranini o‘rnatish va muntazam ravishda arxeologik yodgorlik to‘g‘risidagi videoroliklarni qo‘yib borish.

Viloyatda turizmni rivojlantirishda sayyohlar uchun turli xildagi yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish samarali natija beradi. Misol uchun viloyat bo‘ylab qisqa ya‘ni 1 va 2 kunlik sayohat marshrutlari qatnovini yo‘lga qo‘yish.

Sirdaryo viloyati bo‘ylab ***bir kunlik sayohatning*** turistik marshruti asosan avtobus orqali amalga oshirishdi. Sayohat dasturi davomida Guliston shahrida joylashgan viloyat tarixiy va madaniyati muzeyi, Boyovut tumanidagi Usmon Yusupov xotira majmuasi, Yangiyer shahridagi «Yangiyer sanatoriysi», Xovos tumanidagi O‘lkashunoslik muzeyi, «Ko‘hna Xovos tepaligi» arxeologik yodgorligi va muqaddas ziyoratgohlari, Sardoba tumanidagi «Yog‘ochli Sardoba» arxeologik yodgorligiga sayohatlar uyushtirilishi rejalashtirilgan (2.2.4-jadval).

2.2.4-jadval

Sirdaryo viloyati bo‘ylab **1 kunlik** geografik turizm marshrut manzili, davomiyligiga va mazmuni

<i>Sayyohlar boradigan manzillar ketma-ketligi va davomiyligi</i>	<i>Geografik turizm turlari va turistik obyekt haqida ma‘lumot</i>
Guliston shahri. <i>Sirdaryo viloyatining tarixi va madaniyati davlat muzeyi.</i> 30 minut	<i>Ma‘naviy, ma‘rifiy va tarixiy turizm.</i> Muzey 1907-yilda knyaz Alekseevskiy tomonidan qurilgan tarixiy arxitektura yodgorlikda joylashgan bo‘lib, u 1990-yil 13-dekabr Xalq deputatlari ijroiya qo‘mitasining 30/263-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Muzeyda 4 ta bo‘lim, 847 ta eksponatlar mavjud.
Boyovut tumani. <i>Usmon Yusupov xotira majmuasi.</i> 40 minut	<i>Ma‘naviy va tarixiy turizm.</i> Majmua 2020-yilning 9-dekabrida rasmiy ochilgan. Unda o‘zbek xalqining yetuk davlat va jamoat arbobi Usmon Yusupov faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy lavhalar o‘rin olgan.
Yangiyer shahri. <i>Yangiyer sanatoriysi</i> 1 soat	<i>Nozoturizm.</i> Sanatoriya 230 o‘rinli bo‘lib, 32,3 gektar maydonni egallaydi. Shifo maskani eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, 30 ga yaqin muolaja, 5 ta ma‘muriy, 70 dan ortiq davolanuvchilar xonasi, har biri 200 o‘rinli madaniyat saroyi va oshxona, 2 ming 500 kitob fondiga ega kutubxona va 10 o‘rinli o‘quv zali bu yerda davolanuvchilar xizmatida. Muassasada asab, kardiologiya, nevrologiya, ginekologiya, ayollar bepushtligi, urologiya va boshqa kasalliklar bo‘yicha muolajalar olib boriladi.

	Bemorlarga Aydar-Arnasoy ko‘llaridan olib kelinayotgan shifobaxsh balchiq, parafin, Surxondaryodan olib kelinayotgan shifobaxsh qum, ma‘danli suv orqali vanna, suv massajlari hamda «tuzlig‘or» xonalarida davolanish olib boriladi.
Xovos shahri. <i>Xovos o‘lkashunoslik muzeyi.</i> 25 minut.	<i>Ma‘naviy, ma‘rifiy va tarixiy turizm.</i> Xovos shahri markaz Xotira maydoni hududida tashkil etilgan muzey, 2020-yilda o‘z faoliyatini boshladi. Bu yerdagi noyob eksponatlar «Ko‘hna Xovos» tepaligi ziyoratgohida topilgan.
Xovos tumani. <i>«Ko‘hna Xovos tepaligi» arxeologik yodgorligi.</i> 30 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> Xovos shahri yaqinida joylashgan mahobatli Xovostepa yodgorligi qadimdagi shahardir. Hozirgi kunda uning 1 gektardan ziyod arka va 11 gektarlik qismlari tepalik ostida vayron holda saqlanib qolgan. 1988-1989-yillarda arxeologlar A.Gritsina, V Nabokov, Yu.Buryakovlarning qazishmalari natijasida tepalik ostida bir necha madaniy qatlam borligi aniqlandi. Dastlabki madaniy qatlam antik davrga tegishli bo‘lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarga mansub uy-joy qoldiqlari, metalsozlar binolari, metall eritadigan qozon o‘rinlari va xum idishlardan iborat. Miloddan avvalgi III-I asrlarga doir inshoot xonalarini ko‘zdan kechirish mumkin.
Xovos tumani . <i>«Xasti buzurgon» ziyoratgohi.</i> 30 minut.	<i>Diniy va tarixiy turizm.</i> Xovos tumanida 28 ta tabarruk qadamjolarining hozirda 12 tasi saqlanib qolingan. Shulardan biri «Xasti buzurg» ziyoratgohi. Bu ziyoratgohda «Xasti buzurg» laqabi bilan ulug‘langan Jobir boboning qabri joylashgan. Rivoyat qilishlaricha, Jobir bobo Xovos va uning atroflariga Islom dinini yoyish uchun kelgan va Xovos aholi punktini obod qilish vailm-ma‘rifat tarqatishda ulkan hissa qo‘shgan.
Xovos tumani . <i>«Bibiocha»ziyoratgohi.</i> 30 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> Ziyoratgohda Jobir boboning turmush o‘rtog‘i Bibi Xadicha dafn etilgan. Bu yerda ona yoki buviga ocha deya murojaat qilinganligi tufayli ziyoratgohning nomi «Bibi ocha» deya e‘tirof etilgan.
Xovos tumani . <i>«Yusufbobo» ziyoratgohi.</i> 15 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> Ziyoratgoh qadimda Xovosda temirchilik bilan shug‘ullangan va tabiblik qilgan, keyinchalik temirchilar piri deb ulug‘langan inson Yusufbobo maqbarasi mavjud.
Xovos tumani . <i>«Sherbobo» ziyoratgohi.</i> 15 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> «Sherbobo» maqbarasida olis o‘tmishda Xovosni dushmanlardan himoya qilishga bosh bo‘lgan Ibrohim ismli sheryurak inson dafn etilgan.
Xovos tumani . <i>«Nomozgoh» masjidi.</i> 20 minut.	<i>Diniy turizm.</i> Qadimda«Nomozgoh» masjidini xovosliklar Jobir boboning yetuk va donishmand farzandi sharafiga «Sa‘du Sa‘id» (Sayyidlarning ulug‘i) nomi bilan atashgan.

<p>Sardoba tumani. «Yog‘ochli Sardoba» arxeologik yodgorligi. 20 minut.</p>	<p><i>Tarixiy turizm.</i> ObidaToshkent – Samarqand – Buxoro shaharlarini bog‘lovchi avtomagistral yo‘l yoqasida joylashgan. Sardoba haqidagi ma‘lumotlar Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» asarida keltirilgan. Buxoro xoni Abdullaxon II Toshkentga yurish vaqtida shu hududda dam olish uchun to‘xtab, suvsizlikdan qiynalgan askarlari uchun sardoba va karvonsaroy qurishni buyurgan. Inshoat g‘ishtlari kvadrat shaklda bo‘lib, uning gumbazi ichki diametri 15 metr, balandligi esa 12 metrdir. Sardobaning ichki qismida yerdan 2 metr balandlikda yopiq uyasimon tuynuklar joylashgan. Devorining qalinligi pastki qismida 1,5 metrni, yuqoriga ko‘tarilgan sari u yupqalashib borib, bor yo‘g‘i bir g‘isht ko‘rinishiga keladi. Avvalari sardobaga faqatgina shimol tarafdin kirilgan. Qolgan uch tarafida arka ko‘rinishidagi tuynuklar bor.</p>
---	---

Sirdaryo viloyati bo‘ylab **ikki kunlik sayohatning** turistik marshruti asosan avtobusda amalga oshiriladi. Sayohat davomida Guliston shahrida joylashgan viloyat tarixi va madaniyati muzeyi, «Armada carpet» MCHJning gilam to‘qish korxonasi, Boyovut tumanidagi Usmon Yusupov xotira majmuasiga, Yangiyer shahridagi «Yangiyer sanatoriysi», Xovos tumanidagi «Ko‘hna Xovos tepaligi» arxeologik yodgorligi va muqaddas ziyoratgohlari, «Xoji Gadayboy ota» fermer xo‘jaligi, Mirzaobod tumanidagi «Mirzacho‘l Donald Dak» tuyachilik markazi hamda «Dehqonobod asl anorlari» ishlab chiqarish korxonasi, Sardoba tumanidagi «Yog‘ochli Sardoba» arxeologik yodgorligi, Sirdaryo tumanidagi «Barxan» va «Ali» dam olish maskanlari, O‘zbekiston–Xitoy «Do‘stlik» bog‘i, «Peng-Sheng» qo‘shma korxonada qoshidagi banan yetishtirishga mo‘ljallangan zamonaviy issiqxona, Boyto‘rayev Ulug‘bekning xaykaltaroshlik ustaxonasi va «Chehra» dam olish maskanlariga sayyohatlarni uyushtirish mumkin (2.2.5-jadval).

Barqaror turizm mehmonlar va ularga mezbonlik qiluvchi shaharlarning xavfsizligini ta‘minlash, atrof-muhitning ifloslanishi va aholi zichlanishiga yo‘l qo‘ymasligini talab etadi.

Turistlar oqimini adolatli taqsimlash ham barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2.5-jadval

Sirdaryo viloyati bo‘ylab 2 kunlik geografik turizm marshrut manzili, davomiylig va mazmuni

<i>Sayyohlar boradigan manzillar ketma-ketligi va davomiyligi</i>	<i>Geografik turizm turlari va turistik obyekt haqida ma'lumot</i>
Guliston shahri. Sirdaryo viloyatining tarixi va madaniyati davlat muzeyi. 30 minut	<i>Ma'naviy, ma'rifiy va tarixiy turizm.</i> Muzey 1907-yilda knyaz Alekseevskiy tomonidan qurilgan tarixiy arxitektura yodgorlikda joylashgan bo'lib, u 1990-yil 13-dekabr Xalq deputatlari ijroiya qo'mitasining 30/263-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Muzeyda 4 tabo'lim, 847 ta eksponatlar mavjud.
Guliston shahri.«Armada Carpet» MCHJ. 30 minut	<i>Shop turizm.</i> Korxonada 2017-yilda tashkil etilgan bo'lib, unda 3 xil turdagi zamonaviy va milliy ko'rinishga ega gilam mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bugungi kunda korxonada Qozog'iston va Qirg'iziston ryepublikalariga mahsulot eksportini amalga oshirmoqda.
Boyovut tumani. Usmon Yusupov xotira majmuasi. 40 minut	<i>Ma'naviy va tarixiy turizm.</i> Majmua 2020-yilning 9-dekabrda rasmiy ochilgan. Unda o'zbek xalqining yetuk davlat va jamoat arbobi Usmon Yusupov faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tarixiy lavhalar o'rin olgan.
Yangiyer shahri. Yangiyer sanatoriysi 1 soat	<i>Nozoturizm.</i> Sanatoriya 230 o'rinli bo'lib, 32,3 gektar maydonni egallaydi. Shifo maskani eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, 30 ga yaqin muolaja, 5 ta ma'muriy, 70 dan ortiq davolanuvchilar xonasi, har biri 200 o'rinli madaniyat saroyi va oshxona, 2 ming 500 kitob fondiga ega kutubxona va 10 o'rinli o'quv zali bu yerda davolanuvchilar xizmatida. Muassasada asab, kardiologiya, nevrologiya, ginekologiya, ayollar bepustligi, urologiya va boshqa kasalliklar bo'yicha muolajalar olib boriladi. Bemorlarga Aydar-Arnasoy ko'llaridan olib kelinayotgan shifobaxsh balchiq, parafin, Surxondaryodan olib kelinayotgan shifobaxsh qum, ma'danli suv orqali vanna, suv massajlari hamda «tuzlig'or» xonalarida davolanish olib boriladi.
Xovos tumani. «Ko'hna Xovos tepaligi» arxeologik yodgorligi. 25 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> Xovos shahri yaqinida joylashgan mahobatli Xovostepa yodgorligi qadimdagi shahardir. Hozirgi kunda uning 1 gektardan ziyod arka va 11 gektarlik qismlari tepalik ostida vayron holda saqlanib qolgan. 1988-1989-yillarda arxeologlar A.Gritsina, V Nabokov, Yu.Buryakovlarning qazishmalari natijasida tepalik ostida bir necha madaniy qatlam borligi aniqlandi. Dastlabki madaniy qatlam antik davrga tegishli bo'lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarga mansub uy-joy qoldiqlari,

	metallozlar binolari, metall eritadigan qozon o‘rinlari va xum idishlardan iborat. Miloddan avvalgi III-I asrlarga doir inshoot xonalarini ko‘zdan kechirish mumkin.
Xovos tumani. «Xasti buzurgon» ziyoratgohi. 20 minut.	<i>Diniy va tarixiy turizm.</i> Xovos tumanida 28 ta tabarruk qadamjolarining hozirda 12 tasi saqlanib qolingan. Shulardan biri «Xasti buzurg» ziyoratgohi. Bu ziyoratgohda «Xasti buzurg» laqabi bilan ulug‘langan Jobir boboning qabri joylashgan. Rivoyat qilishlaricha, Jobir bobo Xovos va uning atroflariga Islom dinini yoyish uchun kelgan va Xovos aholi punktini obod qilish vailm-ma’rifat tarqatishda ulkan hissassi bor.
Xovos tumani . «Bibiocha» ziyoratgohi. 30 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> Ziyoratgohda Jobir boboning turmush o‘rtog‘i Bibi Xadicha dafn etilgan. Bu yerda ona yoki buviga ocha deya murojaat qilinganligi tufayli ziyoratgohning nomi «Bibi ocha» deya e’tirof etilgan.
Xovos tumani . «Yusufbobo» ziyoratgohi. 15 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> Ziyoratgoh qadimda Xovosda temirchilik bilan shug‘ullangan va tabiblik qilgan, keyinchalik temirchilar piri deb ulug‘langan inson Yusufbobo maqbarasi mavjud.
Xovos tumani. «Sherbobo» ziyoratgohi. 15 minut.	<i>Tarixiy turizm.</i> «Sherbobo» maqbarasida olis o‘tmishda Xovosni dushmanlardan himoya qilishga bosh bo‘lgan Ibrohim ismli sheryurak inson dafn etilgan.
Xovos tumani . «Nomozgoh» masjidi. 20 minut.	<i>Diniy turizm.</i> Qadimda «Namozgoh» masjidini xovosliklar Jobir boboning yetuk va donishmand farzandi sharafiga «Sa’du Sa’id» (Sayyidlarning ulug‘i) nomi bilan atashgan.
Xovos tumani. «Xoji Gadoyboy» fermer xo‘jaligi. 40 minut.	Mazkur fermer xo‘jaligida zamonaviy gidroponika usulida issiqxona tashkil etilgan. Unda eksportga yo‘naltirilgan poliz mahsulotlari – pomidor, bodring va gullar yetishtiriladi.
Mirzaobod tumani. «Mirzacho‘l Donald Dak» tuyachilik markazi. 40 minut.	Tuyachilik markazi 2019-yil tashkil topgan bo‘lib, bugungi kunda maskanda 50 ga yaqin tuya va bo‘taloqlar boqilmoqda. Shuningdek, tuya suti va qumron mahsuloti shifobaxsh bo‘lganligi sababli, bu yerga qo‘shni viloyatlardan 1000 ga yaqin davolanuvchilar tashrif buyurib, sog‘lig‘ini tiklamoqda.
Mirzaobod tumani. «Dehqonobod asl anorlari» ishlab chiqarish korxonasi. 30 minut.	Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan Germaniya Xalqaro hamkorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilgan «O‘zbekiston qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish» loyihasi doirasida «Dehqonobod asl anorlari» korxonasi «Tabiiy anor sharbati» ishlab chiqarish sexi tashkil etilgan. Sex yiliga 1000 tonna anorni qayta ishlashga mo‘ljallangan. Chunki anor po‘sti dunyoda eng qimmatbaho ashyolardan hisoblanib, undan farmatsevtika, lak-buyoq mahsulotlari ishlab chiqarish hamda chorva

	<p>ozuqasi uchun komponent sifatida foydalaniladi. Danak moyi esa farmatsevtika va kosmetika sanoatida keng qo'llaniladi. Uning mahsulotlari Qozog'iston va Tojikiston davlatlariga eksport qilinadi.</p>
<p>Sardoba tumani. «Yog'ochli Sardoba» arxeologik yodgorligi. 20 minut.</p>	<p><i>Tarixiy turizm.</i> ObidaToshkent – Samarqand – Buxoro shaharlarini bog'lovchi avtomagistral yo'l yoqasida joylashgan. Sardoba haqidagi ma'lumotlar Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» asarida keltirilgan. Buxoro xoni Abdullaxon II Toshkentga yurish chog'ida shu hududda hordiq chiqarish uchun to'xtab, suvsizlikdan qiynalgan askarlari uchun sardoba va karvonsaroy qurishni buyurgan. Inshoat g'ishtlari kvadrat shaklda bo'lib, uning gumbazi ichki diametri 15 metr, balandligi esa 12 metrdir. Sardobaning ichki qismida yerdan 2 metr balandlikda yopiq uyasimon tuynuklar joylashgan. Devorining qalinligi pastki qismida 1,5 metrni, yuqoriga ko'tarilgan sari u yupqalashib borib, bor yo'g'i bir g'isht ko'rinishiga keladi. Avvalari sardobaga faqatgina shimol-tarafdin kirilgan. Qolgan uch tarafida arka ko'rinishidagi tuynuklar bor.</p>
<p>Sirdaryo tumani.«Barxan» dam olish maskani. 1 soat.</p>	<p>Asalchi qo'rg'oni «Barxan» MCHJ 2004-yildan buyon faoliyatini 13 gektar yerni o'zlashtirishdan boshlagan. Hududda 3 ta dam olish korpusi mavjud bo'lib, u 12 ta xorijiy va mahalliy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Daryo bo'yida jami 80-90 kishilik dam olish joylari hamda3 gektar mevali bog' barpo etilgan. Maskanda baliq ovlaydigan maxsus baliq hovuzi, katerda sayr qilish, bilyard stoli, stol tennisi, voleybol maydoni, 20x40 futbol maydoni barpo etilgan.</p>
<p>Sirdaryo tumani.«Chinor» dam olish maskani. 1 soat.</p>	<p>Maskan 2018-yildan buyon faoliyatini boshlagan bo'lib, hududi 5,2 gektarni tashkil etadi. 10 ta dam olish korpusida 50 ta xorijiy va mahalliy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Hududda maroqli dam olish uchun baliq ovlaydigan maxsus baliq hovuzi, voleybol maydoni, 20x40 futbol maydoni barpo etilgan.</p>
<p>Sirdaryo tumani. O'zbekiston–Xitoy «Do'stlik» bog'i. 1 soat.</p>	<p>14,7 gektar maydonni egallagan mazkur maskan ikki xalqning me'moriy an'analarini o'zida mujassamlashtirgani bilan e'tiborga molik. Unga tashrif buyuruvchilar sharqona usulda qurilgan shiyponli yo'laklar bo'ylab sayr qilib, hovuz atrofida hordiq chiqarishlari mumkin. Bolajonlar uchun attraksion maydonchasi ham tashkil etilgan. Zamonaviy o'yingoh esa sport mashg'ulotlari hamda turli madaniy tadbirlarni o'tkazishga xizmat qiladi.</p>
<p>Sirdaryo tumani. «Peng-Sheng» QK qoshidagi zamonaviy</p>	<p>Issiqxona 2019-yilda barpo etilgan bo'lib, bugungi kunda unda banan, apelsin va boshqa sitrus mevalar yetishtirib ichki bozorga, eksportga yo'naltirilgan.</p>

<i>issiqxona.</i> 40 minut.	
Sirdaryo tumani. <i>Hunarmand</i> <i>xaykaltarosh</i> <i>Boyto‘rayev Ulug‘bek</i> <i>ustaxonasi.</i> 30 minut.	Boyto‘rayev Ulug‘bek Sangilboy o‘g‘li 2016-yildan beri xaykaltaroshlik yo‘nalishida faoliyat yuritib, 20 turdan ortiq mahsulotlar yasab kelmoqda. Turkiya, Rossiya, Qozog‘iston, Azarbayjon respublikalariga eksport qilinmoqda.
Sirdaryo tumani. <i>«Chehra» dam olish</i> <i>maskani.</i> 30 minut.	Maskan 2019-yildan qonuniy ravishda faoliyatini boshlagan bo‘lib, hududi 4 gektar yerni tashkil etadi. Majmuada bir paytning o‘zida 30 ta xorijiy va mahalliy sayyohlarning dam olishlariva hordiq chiqarishlari uchun barcha qulayliklar mavjud.
<i>Guliston shahriga</i> <i>qaytish.</i> 40 minut.	

O‘rganilgan nazariy bilimlar xorijiy tajribalar hamda bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish natijasida ishlab chiqilgan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

✓ Guliston shahri markazida joylashgan A.Navoiy nomidagi «Bilimdonlar maskani» atrofida rassomlar, dizaynerlar, yosh havaskor san’atkor va hunarmandlar uchun mahsus joy ajratish;

✓ Guliston shahri I.Karimov ko‘chasidan O‘zbekiston shoh ko‘chasi bo‘ylab Xondamir ko‘chasigacha bo‘lgan masofada velosipedlar uchun maxsus yo‘laklar barpo etish;

✓ Oqoltin tuman«Yangi Toshkent» mahalla hududida «Sardoba muzeyi»ni tashkil etish;

✓ viloyatda gastroturizmni rivojlantirish maqsadida viloyat Oshpazlar uyushmasi bilan hamkorlikda mahallalar o‘rtasida «Taomlar» festivalini tashkil etish;

✓ Sayxunobod tumani «Robot» SIU hududi Sayxun qo‘riqxonasini Turuzmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazish;

✓ oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va faoliyatini yaxshilash maqsadida tadbirkorlar uchun imtiyozli bank kreditlarini ajratish hamda «Har bir oila-tadbirkor» davlat dasturiga kiritish;

✓ xalqaro avtomagistral yo‘l bo‘ylarida turistik obyektlarni barpo etish maqsadida tadbirkorlarga yer maydonlarini auksionga qo‘ymasdan

Vazirlar Mahkamasi yoki viloyat hokimining tegishli qarorlari asosida ajratish;

✓ barcha tuman va shahar hokimliklarida turizm yo‘nalishida bir nafar xodim uchun shtat birligini ajratish;

✓ barpo etiladigan ekoturizm obyektlarini davlat xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirish;

✓ «Ko‘hna Xovos» ziyoratgohini YUNESKOning Butun jahon madaniy meroslar ro‘yhatiga kiritish va h.k.

Bularni amalga oshirishda quyidagi muammolar to‘siq bo‘lib turibdi:

✓ turistik obyektlarga olib beruvchi ichki yo‘llarni ta‘mirlash va asfalt qoplamasini yotqizilmaganligi;

✓ viloyatda mavjud turistik obyektlarni mahalliy teleradiokompaniyasi orqali keng yoritilmayapganligi;

✓ targ‘ibot ishlari uchun moliyaviy mablag‘larni ajratilmaganligi;

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda ba‘zi bir kamchilik va foydalanilmayotgan imkoniyatlar borki, ularni bartaraf etish va bu yo‘lda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3-bob.GULISTON DAVLAT UNIVERSITETIDA TURIZMGA DOIR O‘QUV JARAYONI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

3.1. Guliston davlat universitetida turizmga doir o‘quv jarayoni holati

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy tabiiy fanlar sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta’limning uzluksizligi va davomiyligini ta’minlash, jahon ta’lim tizimiga qo‘shilish, shuningdek oliy ta’limning o‘quv-metodik va normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustda «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli qarori e’lon qilindi¹. Qarorning 3-bandida oliy ta’limga doir tushunchalarga ta’riflar berib ***bakalavriat**–o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’lim. **Bakalavr**–oliy ta’limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajadir².*

Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorining³ 5.1-bandidi ***bakalavriat bosqichining o‘quv rejalari va fanlar dasturlari*** – Oliy ta’limning birinchi bosqichigumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy; matematik va tabiiy-ilmiy; umumkasbiy; ixtisoslik va qo‘shimcha fanlar blogida o‘quv rejalari va fanlar dasturlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabanning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishini nazarda tutishi zarur deb belgilab qo‘yilgan.

Fanlar bloki quyidagi talablarni: kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutilishi; o‘quv rejalarda majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z

¹<https://lex.uz/docs/361387>.

²<https://lex.uz/docs/361387>.

³<https://lex.uz/docs/361387>.

ichiga olishi; bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalari va fanlar dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi; bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uning o'quv rejalari muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishini nazarda tutishi lozim. «Turizm» fan sohasi ham bundan mustasno emas, albatta.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli sohalarda bo'lgani kabi turizmni rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy asoslarini isloh qilishga doir ko'plab ishlar olib borilmoqda. Shu bois ayni damda turizm sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy, fundamental ishlanmalar, ilmiy tadqiqotlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida turizmga doir o'quv jarayonining holati hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatning integratsiya va koordinatsiyasi talab darajasida emasligi kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yillar davomida turizm sohasidagi ilmiy tadqiqotlar deyarli yo'q desa ham bo'ladi. Masalan, 1993-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda jami 5 ta doktorlik (DSc), 13 ta nomzodlik va 7 ta dissertatsiya (PhD) ishi himoya qilingan. Bugunga kelib 30 nafarga yaqin kishi turizm sohasi muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Mazkur ko'rsatkichlar turizm va mehmondorchilik sohasida mavjud muammolarga nisbatan ancha kam¹.

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati rivojida turizm sohasining rolining oshib borishi mazkur sohada ro'y berayotgan jarayonlarni ilmiy o'rganish va asoslash, ishonchli kadrlar tayyorlash tizimini yaratish, professional turistik ta'limning zamonaviy modellarini o'zlashtirishni talab qilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalariga, mamlakatimizning turizm imkoniyatlarini fan sohalaridan kelib chiqqan holda o'qitish, jumladan, Guliston davlat universitetida uni zamon talablariga moslashtirish dolzarb masalalardan biridir.

2020-2021-o'quv yili Guliston davlat universitetida 8 ta fakultet va 27 ta kafedra faoliyat olib bormoqda. Universitetda 44 ta ta'lim yo'nalishlari

¹<https://uzbektourism.uz>.

bo'yicha bakalavrlar tayyorlanmoqda¹. Turizm sohasini rivojlantirish, uni boshqarish, rivojlantirish uslublari va shakllaridan unumli foydalanish hamda samarali natijalarga erishish, turizm sohasida olib borilayotgan davlat siyosati, turistik korxonalar va firmalar faoliyatini nazorat qilish, ko'p va aniq mijozlarning talab va istaklariga mos turistik maxsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirish maqsadida Universitetning Tabiiy fanlar va Jismoniy madaniyat fakultetlari talabalariga bir necha yillardan buyon turli fan sohalariga tegishli o'quv dasturlari yordamida bilimlar berib kelinmoqda.

Tabiiy fanlar fakultetining Ekologiya va geografiya kafedrasidagi 5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi ta'limi yo'nalishida 2015–2019-o'quv yillarida turizm fan sohasiga oid bilimlar 4 kursning 7-semestrda «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o'quv dasturi asosida 64 soat auditoriya va 50 soat mustaqil ta'lim, jami 114 soat ajratilgan, 2020-2021-o'quv yilida esa bu fan sohasida tegishli birorta o'quv moduli ishchi o'quv rejasiga kiritilmagan. 5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishida 2015-2019-o'quv yillarda «Ekologik siyosat» o'quv dasturida turizmning tarmog'i hisoblangan ekoturizmga doir bilimlar berilgan bo'lsa, 2020-2021-o'quv yilida alohida «Ekoturizm» o'quv dasturi sifatida 60 soat auditoriya va 60 soat mustaqil ta'lim jami 120 soat ajratilib o'qitib kelinmoqda.

Jismoniy madaniyat fakultetining Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasidagi 5112000 – Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishida turizm fan sohasiga oid bilimlar 2015–2019-o'quv yillarda tanlov fan sifatida 2-kurs 4-semestrda «Turizm va uni o'qitish metodikasi» o'quv fani asosida 76 soat auditoriya va 64 soat mustaqil ta'lim jami 140 soat ajratilgan, 2020–2021-o'quv yillarida «Turizm» o'quv dasturi asosida 60 soat auditoriya va 60 soat mustaqil ta'lim jami 120 soatni tashkil etadi.

«Geografiya o'qitish metodikasi» 5110500 – ta'lim yo'nalishi bakalavriyat bosqichi talabalariga 2019-2020-o'quv yilida «*Turizm va rekreatsiya geografiyasi*» o'quv dasturi asosida o'qitilgan o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida *talaba*:

¹<http://guldu.uz/uz/universitet>.

faning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, Turizm va rekreatsiya geografiyasining asosiy xususiyatlari, turizm turlari, tarmoqlari, rekreatsiya rivojlanishining aholi va iqtisodiyotdagi ulushi haqida ***bilimga***;

Turizm va rekreatsiya geografiyasi rivojlanish, hududiy chegaralarini aniqlay bilish va xaritada tasvirlay olish, turizm va rekreatsiyaning asosiy turlarini qanday joylashganligini xaritadan aniqlay bilish, uning turli qismlarida iqlimni o'ziga hos xususiyatlarini aniqlay olish, tabiiy resurslardan foydalanish sabablarini tushuntirib bera olish ***ko'nikinalariga***;

Turizm va rekreatsiya geografiyasobyektlarini joylashtirishdagi asosiy qonuniyatlar aniqlash, iqtisodiyotga ta'siri, uning asosiy tarmoqlarini hududlar bo'yicha tarqalishi va joylashishini tushuntirib bera olish, har bir davlatning tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlarini turistik va rekreatsion jihatlarini aniqlay olish va baholash ***malakalariga*** ega bo'lishi kerak, deb berilgan.

Lekin, bu o'quv fani Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgani va uni *pedagogik nuqtai nazardan talqin qilish masalasi inobatga olinmagan va uni o'qitish metodikasiga oid birorta ham bilim, ko'nikma va malaka talablari kiritilmagan (1-ilova)*.

Mazkur bakalavriyat bosqichining Gyeografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalariga «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o'quv fani 4-kurs 7-semestruga qo'yilgan bo'lib, jami 114 soatni tashkil etgan. Bunda o'quv yuklama pedagog uchun ma'ruza (32 soat) va amaliy (32 soat) mashg'ulotlar jami 64soat(56 foiz) ajratilgan bo'lsa, bakalavrningmustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun 50 soat (44 foiz) ajratilgan.Bu ajratilgan soatlar hozirgi kunda amaliyotga keng joriy qilinayotgan kredit o'quv moduli talablariga mos kelmaydi. Kredit o'quv moduli tizimda o'quv dasturining asosan 60 foiz qismi mustaqil ta'limga, 40 foizesa auditoriya soatlariga ajratilgan bo'lishi lozim.

«Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o'quv fanida berilgan mavzularning birortasi ham metodikaga oid emas. Unda ma'ruza mashg'ulotlari amaliy mashg'ulot mavzularini qaytargan. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni yoritishda bir xil: kirish, ma'ruza, muammoli, anjuman ma'ruzalar hamda suhbat, «B\B\B», tuchuntirish, munozara,

kichik guruhlarda ishlash, kuzatish va qiyosiy-tanqidiy tahlil metodlardan foydalanilish tavsiya qilingan. Vaholanki, ta'lim metodlarining har biri mavzuning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq bo'lar edi (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

«Turizm va rekreatsiya geografiyasi» fan dasturida berilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari

T\r	Maruza mashg'ulotlari mavzulari	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari
1.	Rekreatsion faoliyatning klassifikatsiyasi	Rekreatsion faoliyatning klassifikatsiyasini tahlil qilishni o'rganish
2.	Rekreatsion geografiyaning rivojlanish omillari. Rekreantlarni hisobga olish metodlari	Rekreatsion geografiyaning rivojlanish omillari. Rekreantlarni hisobga olish metodlarini o'rganish
3.	Rekreatsiyani rivojlantirishda turistik tashkilotlarning ahamiyati	Rekreatsiyani rivojlantirishda turistik tashkilotlarning ahamiyatini o'rganish
4.	Turizm – tizimi o'rganish obyekti sifatida	Turizm – tizimi o'rganish obyekti sifatida shakllanish xususiyatlari
5.	Turizm mohiyati. Turizm klassifikatsiyasi	Turizm mohiyati. Turizm klassifikatsiyasi ularning tahlili
6.	Turistik yo'nalishlarning shakllanishi	Turistik yo'nalishlarning shakllanishiyo'nalishlarini tahlil qilish
7.	Turistik oqim statistikasi. Turistik daromad va xarajatlar statistikasi.	Turistik oqim statistikasi. Turistik daromad va xarajatlar statistikasini tahlil qilish
8.	Turistik bozorni segmentlash. Turizm turlari	Turistik bozorni segmentlash. Turizm turlarini tahlil qilish
9.	Turistik talab geografiyasi. Turistik talabning hozirgi zamon yo'nalishlari.	Turistik talab geografiyasi. Turistik talabning hozirgi zamon yo'nalishlari.
10.	Turistik industriyaning xususiyatlari va tarkibi	Turistik industriyaning xususiyatlari va tarkibi
11.	Turizm siyosati asoslari	Turizm siyosati asoslari
12.	O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi	O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi
13.	O'zbekistonda rekreasiya resurslarning rivojlanishi	O'zbekistonda rekreasiya resurslarning rivojlanishi
14.	O'zbekistondagi turizmini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi.	O'zbekistondagi turizmini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi.

«Turizm va rekreatsiya geografiyasi» namunaviy o‘quv dasturida berilgan asosiy adabiyotlarning hech qaysi birida turizm va rekreatsiya geografiyasiga oid ma’lumotlar berilmagan. Unga tegishli mavzularda adabiyotlarning ichidagi ma’lum bir paragraflarida berilgan bunday ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan adabiyotlar asosiy adabiyot sifatida berilishi noto‘g‘ri. Adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan adabiyotlarning bir qismi turizm biznesi va menejmentiga oid bo‘lsa, yana bir qismi iqtisodiy va siyosiy geografiyaga tegishlidir.

Qo‘shimcha adabiyotlar sifatida keltirilgan adabiyotlar ham yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni takrorlaydi. Internetmanbalarida keltirilgan veb-sayt va portallardan turizmga oid ma’lumotlarni emas, balki boshqa sohalarga oid ma’lumotlarni olish mumkin (3.2.1-rasm).

Xulosa qilib aytganda, 2019-2020 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o‘quv fani – GulDUning «Gyeografiya o‘qitish metodikasi» talablariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorining 5.1-bandiga javob bermaydi. Shuning uchun ham tegishli bakalavriyat bosqichi, ularga qo‘yiladigan davlat talablaridan kelib chiqqan tarzda uni qayta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

3.2. Guliston davlat universitetida turizmga doir o‘quv jarayonini takomillashtirish yo‘llari

Yurtboshimizning 2019-yil 8-oktabrda farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasi»ga ko‘ra mamlakatdagi OTMning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. 2020-2021-o‘quv yilining o‘zida GulDU kredit-modul tizimiga o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevralda «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi 6155-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy ta’lim va Xalq ta’limi vazirliklariga «Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Aleksandrova Yu . «Mejdunarodniy turizm». Uchebnik, Moskva.
2. O.Sh. Ismailov. Turizm biznesi va menejmenti. O'quv qo'llanma Toshkent, 2011.
3. Aliyeva M. va boshq. "Xalqaro turizm" Toshkent. 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунилари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи гезетаси. 2017 йил январь, № 11.
4. Мирзиёев Ш. М. Бузюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. "Ўзбекистон", 2017.
5. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт таракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон", 2017.
7. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I., O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasm. T.: "O'qituvchi" 1994.
8. Amanov M., Abduraxmonov A. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, Qoraqalpog'iston. T., 1995.
9. Jahon mamlakatlari uchun atlas.
10. To'xliiev N., va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" T.: 2006.
11. Rodrigue, J-P (ed). The Geography of Transport Systems. UK, London. Third Edition, Routledge. 416 pages. ISBN: 978-0-415-82254-1

Internet saytlari

12. www.ziyonet.uz/ru/library/book/6767/libid/70110
13. www.nuu.uz/faculties/economy/index.php?lk=mi_kaf&ln=en
14. www.connect.uz/forum/index.php?showtopic=256&st=165
15. www.gov.uz/uz/content.scm?contentId=13040

3.1.1-rasm. «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» fan dasturida berilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirishni... amalga oshirish» orqali «Iqtidorli yoshlarning ilmiy g'oyalarini rag'batlantirishni...tashkil etish» vazifasi yuklatilgan. Shulardan kelib chiqib, OTM bakalavriyat bosqichida o'qitiladigan turizmga doir o'quv fani qaytadan ko'rib chiqish o'ta dolzarb masaladir.

Yuqorida tahlil qilingan «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» fan dasturini ana'naviy o'qitish tizimi va tegishli o'quv moduli orqali OTM bakalavriyat bosqichiga hujjat topshirayotganlar mazkur modul orqali aynan nimalarni o'rganishlari mumkinligi haqida yetarlicha ma'lumotga ega va qaysi bir ta'lim bosqichiga tegishli ekanligini angalay olmaydilar. GulDU 5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi ta'limi, ta'lim yo'nalishidagi Turizm va rekreatsiya geografiyasining avvalgi va hozirgi dasturlari orqali fanining maqsadi, unda o'rganiladigan mavzular, semestr davomida talabalar qanday bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish kerakligi haqida tassovurga ega emaslar.

Dastur orqali O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ECTS kredit-modul tizimi joriy etish kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 2-bandida kredit-modul tizimiga oid tushunchalar berilgan. Unda *kredit* – ta'lim olish natijalariga ko'ra talabatomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligidir. Qoidaga ko'ra kreditlar butun yoki kasr sonlarda ifodalanishi va kreditlarni berish esa malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talabayoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni. *Kredit to'plash* – ta'lim elementlarini o'zlashtirish

*va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plashdir*¹.

Kredit-modul tizimi geografik oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kiradi. Unga ko'ra, «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» fani endilikda undagi o'quv yuklamasi miqdoriga qarab, raqamli kreditlarda aks etadi. Masalan, Turizm va rekreatsiya geografiyasi o'quv modulidan o'rtacha 4 va 5 yoki 4,5 va 5,2 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr va o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab unga bakalavr darajasi beriladi.


ECTS kredit-modul geografik ta'lim tizimidagi bir yillik kreditlar miqdori 240kreditni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrda iboratligini hisobga olsak, talaba o'qishi davomida har semestrda 30 kredit to'plab borishi kerak bo'ladi. Bakalavriyat dasturi 4 yilligini hisobga olinsa, talaba ushbu darajani qo'lga kiritish uchun jami 240 kredit to'plashi talab etiladi.

Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredittalaba bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini bildiradi. ECTS kredit-modul tizimida 3.2.1-rasmda berilgan «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o'quv modulidan 1 kredit o'rtacha 30 soatlik o'qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar Turizm va rekreatsiya geografiyasidan «4»kreditli fan bo'lsa, talaba ushbu fan bo'yichabelgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 240 soatlik o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi, ya'ni $30 \text{ soat} \times 8 \text{ kredit} = 240 \text{ soat}$ miqdorida hisoblanadi.

Shunday qilib, Turizm va rekreatsiya geografiyasi kredit-moduli tizimini geografik ta'limga joriy etish orqali talaba fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab, o'qish boshlanmasdanoq uni o'qish va o'rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligini bilib oladilar. Bu esa geografik ta'limda shaffoflikning bir ko'rinishidir.

Albatta, Turizm va rekreatsiya geografiyasi bo'yicha 1 kredit o'qish yuklamasi (25-30 soat oralig'ida) aynan necha soat bo'lishini odatda har bir OTMning ichki qoidalarida belgilaydi.

¹Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizom.<https://lex.uz/docs/5193564>



3.2.1-rasm. «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» kredit o'quv moduli yuklamasi

Shuni ta'kidlash kerakki, 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o'qish yuklamasi Turizm va rekreatsiya geografiyasi fanini o'rganish uchun sarflanadigan jami harakatlar jamlanmasi bo'lib, unga nafaqat darsvaqti, balki talabanning fanni o'rganish uchun uyda va kutubxonadasarflagan vaqti, imtihonlar vaqti kabi uni o'zlashtirish uchun sarflagan barcha tizimli harakatlar vaqtini qamrab oladi.

Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to'g'ri keladi. Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati auditoriya soati, 18 soati esa talabanning mustaqil o'qish soatiga to'g'ri keladi (3.2.1-rasmga qarang).

Yuqoridagi qoidalaridan shuni tushunish mumkinki, ECTS o'quv kredit-modul tizimida talabanning bilim olish vaqti dars vaqti bilan cheklanib qolmasdan, balki talabanning o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda bilimning manbayi faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi va unga o'qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki bakalavr nuqtai nazardan yondashiladi. Bu degani, endilikda bakalavr ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z yelkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda Turizm va rekreatsiya geografiyasini o'zlashtirib borishi kerakligini bildiradi. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan pedagogning mas'uliyati, ya'ni ularga darsdan tashqarida ta'lim olish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish uning vazifasidir. Bizning holatda bakalavrlar uchun Turizm va rekreatsiya geografiyasidan sifatli o'quv-me'yoriy hujjatlarni yaratish, ularni ekspertizadan o'tkazish va tegishli adabiyotlar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

Ta'limning kredit-modul tizimining afzalliklaridan biri – bu bakalavriyat dasturiga shaffoflikni kiritishdir.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020-yil 14-avgustda 3-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan Toshkent davlat pedagogika universiteti «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» kafedraasi pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan bakalavr bosqichi 5110500 –Geografiya o'qitish metodikasi «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» fan dasturi ham 3.1-paragrafda kelitirilgan aksariyat kamchiliklardan holi emas. Uni 5110500 –Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriyat yo'nalishiga mos ravishda qayta ishlab chiqish va istiqbolda:

1. *«Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o'quv fanini bakalavriyat yo'nalishi nuqtai nazardan «Turizm va geografik iqtisodiyot» deb nomlash.*

2. *«Turizm va geografik iqtisodiyot»ni fan dasturi sifatida emas, balki kredit o'quv moduli sifatida shakllantirish.*

3. *O'quv yuklamadagi soatlar taqsimotida auditoriya mashg'ulot soatini mustaqil ta'limga nisbatan 40x60 foizga moslashtirish.*

4. *Ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim mavzularini o'quv modulining maqsadi va vaziflariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, ularni takrorlamasdan, balki o'zaro bog'langan mavzular bilan boyitish.*

5. *Tavsiya etiladigan adabiyotlarni oxirgi yillarda chop etilgan va mavzularga tegishli adabiyotlar bilan boyitish va h.k.*

Agar taklif etilayotgan «Turizm va geografik iqtisodiyot» o'quv kredit-modul dasturi GulDU misolida amaliyotga to'liq joriy etilsa:

➤ *ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarning milliy ta'limni isloh qilishga qartilgan innovatsion harakatlari inobatga olinadi;*

➤ *o'quv jarayoniga qo'yilayotgan fanlarning mutaxassisligiga tegishli qismlariga doir ta'lim berilayotganini inobatga olgan tarzda kredit o'quv moduli zamon talablariga moslashtiriladi;*

➤ *OTMlar uchun yangi kredit-modul tizimi real ta'sir kuchiga ega bo'ladi va u o'z samradorligini amalda ko'rsatadi;*

➤ *mutaxassislikka va zamon talablariga mos ravishda ta'lim jarayoni yo'lga qo'yiladi;*

➤ *ishchi dasturlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan tarzda ishlab chiqishga imkon beradi;*

➤ *bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan OTMning ta'lim menejmenti shakllantiriladi;*

➤ *OTMda o'qish jarayonining shaffofligiga erishiladi;*

➤ *o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga;*

➤ *talabalarni mustaqil ishlashga undaydi, pedagoglarni esa ma'suliyatini oshirishga olib keladi va h.k.*

Agar mahalliy OTMlar kredit-modul tizimiga o'tsalar-u, lekin o'quv modullarga qo'yilayotgan talablar o'zgarmaydigan bo'lsa milliy ta'lim-tarbiya islohatlari hayotga joriy qilinmasligi ham mumkin.

XULOSA

Globalashuv jarayoni, xalqaro axborotlar, aloqa, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot, tizimining takomillashuvi, turizm sohasini dunyoning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirdi. Xususan, xalqaro miqyosda turistlar sonini 3,8 marotaba, ulardan tushadigan valyuta tushumlari esa 11 marotabaga oshdi. O‘zbekistonda ham keyingi 4 yil mobaynida turizm sohasiga juda katta e‘tibor berila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonining 3-yo‘nalishining 2-bandi bevosita turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga qaratildi. Buning ijrosi uchun o‘nlab normativ-hujjatlar qabul qilindi va ulardan har bir ma‘muriy birliklar, jumladan Sirdaryo viloyatida ham turizmni jadal rivojlantirish vazifasi belgilanib olindi.

Hozirga qadar «turizm» tushunchasiga berilgan ta‘riflar ko‘proq statistik maqsadlarga yo‘naltirilgan masalalarni yechish vositasi sifatida uning alohida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatlarini qamrab oluvchi, birmuncha tor ixtisoslashgan. Yana bir ta‘rif esa konseptual yo‘nalishda bo‘lib, u turizmning turli xil xususiyatlari va o‘ziga xos munosabatlarini aks ettiruvchi murakkab ichki mazmun va mohiyatni ochib berishga qaratilgandir. Shuning uchun ham «turizm» – shaxs(lar)ni bo‘sh vaqtlarida doimiy yashab turgan joylaridan 24 soatdan kam va 6 oydan ko‘p bo‘lmagan davr oralig‘idahaq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda, madaniy, ma‘rifiy, kasbiy, diniy, sport va boshqa maqsadlarda boshqa mintaqaga yoki davlatga vaqtincha yashash uchun jo‘nab ketishi va sayohatning boshlang‘ich nuqtasiga qaytish bilan yakunlanadigan sayohat, deb qarash mumkin. «Turizm industriyasi» esa insonlarning tashrif buyurgan davlatlarida pul to‘lanadigan kasbiy faoliyatdan tashqari istalgan maqsadlarda vaqtinchalik ko‘chib yurishlari davomida vujudga keladigan talablarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqaruvchilar guruhidir.

Respublikaning ma'muriy birliklar doirasida turizmni rivojlantirish orqali: milliy foydani yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, davlat byudjetiga valyuta tushumini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy infrastrukturaning rivojlanishiga ko'maklashish, mintaqaviy rivojlanishni tenglashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, tabiiy va madaniy yodgorliklardan samarali foydalanishga ko'maklashish imkoniyatini beradi. Turizm iqtisodiy faoliyatlardan tashqari aholining mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash, keng miqyosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, madaniy bilish va jamiyatni estetik rivojlantirish kabi qator ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi.

Hozirgi kunda Sirdaryo viloyati o'zining geografik joylashuvi, ya'ni qadimdan Buyuk Ipak yo'li, hozirda esa poytaxtni turizm markazlari bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi chorrahasida turgani, uning tabiati, xo'jaligi va aholisining o'ziga xos madaniy merosga egaligi uni mustaqil turistik obyekt sifatida qarashga olib keldi. Viloyatda 78 ta turistik obyekt ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 18 tasi arxeologik yodgorliklar, 15 tasi arxitektura yodgorliklari, 41 tasi monumental san'at yodgorliklari hamda 4 tasi diqqatga sazovor joylardir¹. Unda turistlarni joylashtirish joylari hozirda 18 ta, o'rinlar soni esa 1042 tani tashkil etmoqda. Viloyat hududida 1 ta muzey (eksponat fondi 1296 ta), 1 ta teatr, 4 ta madaniyat va istiroxat bog'lari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustda «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonining 3-ilovasidagi «Yo'l xaritasi»ga binoan Sirdaryo viloyatida: Guliston shahrida «Bilimdonlar maskani» atrofida rassomlar, dizaynerlar, yosh havaskor sana'tkorlar va hunarmandlar uchun mahsus joy ajratish; velosipedlar uchun maxsus yo'laklar barpo etish; Oqoltin tumani «Yangi Toshkent» mahallasida «Sardoba muzeyi»ni tashkil etish; gastroturizmni rivojlantirish uchun «Oshpazlar uyushmasi» tashkil etish va «Taomlar festivali» doimiy ravishda o'tkazish; Sayxunobod tumani «Robot

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi «Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»846-sonli qaroriga 1-ilova

SIU» hududidagi Sayxun qo‘riqxonasini Turuzmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazish; oilaviy mehmon uylarini tashkil etish uchun «Har bir oila-tadbirkor» davlat dasturiga kiritish; xalqaro avtomagistral yo‘l bo‘ylarida turistik obyektlarni barpo etish uchun tadbirkorlarga yer maydoninsh ajratish; barcha tuman va shahar hokimliklarida turizm yo‘nalishida bir nafar xodim uchun shtat birligini ajratish; barpo etiladigan ekoturizm obyektlarini davlat xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirish; «Ko‘hna Xovos» ziyoratgohini YUNESKOning Butun jahon madaniy meroslar ro‘yhatiga kiritish; turistik obyektlarga olib beruvchi ichki yo‘llarni ta‘mirlash va asfalt qoplamasini yotqizish; OAV orqali targ‘ibot ishlari uchun mablag‘ ajratish rejalashtirilgan.

2019–2020-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o‘quv fani – GulDUning «Gyeografiya o‘qitish metodikasi» talabalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorining 5.1-bandiga javob bermaydi. Shuning uchun ham uni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasi»ga kredit-modul tizimiga kreativlik nuqtai nazardan ko‘rib chiqish hamda tegishli bakalavriyat bosqichiga qo‘yiladigan davlat talablaridan kelib chiqqan tarzda uni qayta ishlash maqsadga muvofiq.

5110500 –Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriyat yo‘nalishiga mos ravishda «Turizm va rekreatsiya geografiyasi» o‘quv fanini bakalavriyat yo‘nalishi nuqtai nazardan «Turizm va geografik iqtisodiyot» deb nomlash kerak. Uni fan dasturi sifatida emas, balki kredit o‘quv moduli sifatida shakllantirish, o‘quv yuklamasini 40x60 foiz moslashtirish, ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta‘lim mavzularini o‘quv modulining maqsadi va vaziflariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish, ularni takrorlamasdan, balki o‘zaro bog‘langan mavzular bilan boyitish talab etiladi. Tavsiya etiladigan adabiyotlarni oxirgi yillarda chop etilgan va mavzularga tegishli adabiyotlar bilan boyitish zarur.

Yuqorida taklif etilayotgan «Turizm va geografik iqtisodiyot» o‘quv kredit-modul dasturi orqali GulDUning «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» bakalavriyat yo‘nalishida ta’lim olayotgan talaba, milliy ta’limni isloh qilishga qartilgan innovatsion harakatlariga moslashadi, OTMlar uchun yangi kredit-modul tizimi real ta’sir kuchiga ega bo‘ladi va u o‘z samradorligini amalda ko‘rsatadi, yo‘nalish va zamon talablariga mos ravishda ta’lim jarayoni yo‘lga qo‘yiladi, ishchi dasturlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan tarzda ishlab chiqishga imkon beradi, bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan OTMning ta’lim menejmenti shakllantiriladi, OTMda o‘qish jarayonining shaffofligiga erishiladi, o‘quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori talab ehtiyojlari asosida shakllanadi, talabalarni mustaqil ishlashga undaydi, pedagoglarni esa ma’suliyatini oshirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan, Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. 2017-yil 14-yanvar.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрь «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-4861-сон фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4октабрдаги «Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида» 846-сонли қарорига 1-илова.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармони.

5. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июндаги «Туризмтўғрисида»ги қонуни.

6. Биржаков М. Б. Введение в туризм: изд. 9-е, перераб. и доп. СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. – 576 с.

7. Богданов Ю.В. Развитие индустрии туризма как фактор социально-экономического роста региона (на примере Санкт-Петербурга и Ленинградской области) Автореферат дисс. .. кан.экон.н. Санкт-петербург, 2004.– 28 с.

8. Быстров С.А., Воронцова М.Г. Туризм: макроэкономика и микроэкономика. СПб.: Издательский дом «Герда», 2008.- 246 с.

9. Воронцова М.Г. Туризм: организация и управление. Учеб. Пособие.– СПб: «СПбГУКИ», 2004.– 214 с.

10. Гезгала Я. Туризм в народном хозяйстве.– М.: «Прогресс», 1974. – 124 с.

11. Жукова М.А. Индустрия туризма: менеджмент организации. – М.: «Финансы и статистика», 2003. – 192 с.
12. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. 2-е изд. – М.: «КНОРУС», 2006. – 193 с.
13. Квартальнов В.А. Стратегический менеджмент в туризме: Современный опыт управления. — М.: «Финансы и статистика», 1999.– 254 с.
14. Маркова И.С. Организационно-экономический механизм развития рынка туристских услуг (на примере Хабаровского края) Дисс. ... док. экон. н.– Хабаровск, 2009.–47 с.
15. Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год. Методологические исследования Серия М. № 83/ Rev.1. ООН. Мадрид и Нью-Йорк, 2010.– 179с.
16. Мескон М. Х., Альбер М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: пер. с англ. — М.: Дело ЛТД, 1995.
17. Российский туристский бюллетень. Туризм: информация, статистика, анализ. №9, 1999.–С.13-16.
18. Стрельников А.В. «Организационно-экономический механизм обеспечения конкурентоспособности образовательных услуг вузов, занимающихся подготовкой кадров для сервиса и туризма». Автореферат дисс... кан.экон.н. Москва – 2012.–27 с.
19. Толковый словарь рыночной экономики.-М.: Глория,1993.
20. Толковый словарь туристских терминов. Москва- Афины. INFOGROUP. 1994г.
21. Туризм асослари. Тухлиев И.С. ва бошқ. Ўқув қўлланма. 3-нашри. – С.: «СамИСИ», 2010. – 284 б.
22. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Ибодуллаев Н.Э., Амриддинова Р.С. Туризм асослари. Ўқув қўлланма. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. — С.: СамИСИ, 2010. – 284 б.
23. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. — Т.: «ГНИ Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006. – 367 с.
24. Ўзбекистон табиати.Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси, Ўзбекистон экологик ҳаракати;

тузувчилар: Б.Алихонов, Т.Абдуллаев, Т.Орипов ва бошқ.— Т.: «Chinor ENK», 2011.— 276-б.

25. Экономикатуризма. МорозовМ. А. и др.— М.,2014. – 303с.

26. Mathieson A., Wall G. Tourism Economic, Physical and Social Impact Longmont Scientific and Technical, Singapore, 1989.— 137 p.

27. Кръстев В. Относно новото туристическо райониране наБългария: критични съображения // Проблеми на географията, 2015. № 3–4. С. 21–33.

28. Cabaj W., Kruczek Z. Podstawy geografii turystycznej.— Kraków: Proksenia, 2009. – 232 p.

29. Casari M. Geografia e turismo. Elementi per un approccio sistemico sostenibile.— Milano: Hoepli, 2008. – 242 p.

30. Нигматов А.Агротуризм: янги имкониятлар сари.— Жамият,42-сон, 2007. 13–16-б.

31. Нигматов А. Табий география ва геоэкология назарияси.—Т.: «Наврўз», 2018. – 220 б.

32. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. М.: «Омега-Л»,2002.— 384 с.

33. Александрова А.Ю. Международный туризм.— М.: «Аспект преес», 2002.—470 с.

34. DavidovR. Tourism.—London,1990.— 68 p.

35. BayqabiovX. M., Nigmatov A. N., Mirackmalov M.T., Karakulov N. M. Toponomic analysis of world countries degree of learning toponimic classification and natural geographical aspects (examples of European countries) // Internation journal of recent Technology and Engineering. Volume 8, Issue 4, November 2019. – 814-819 pg. <https://www.scopus.com/sourceid/21100889873>

36. Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы. Сборник научных трудов XI Международной научно-практической конференции.—М.: «МГИ институт индустрии туризма», 2018.— 486 с.

37. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. М.: «Омега-Л»,2002.

38. Александрова А.Ю. Международный туризм.— М.: «Аспект преес», 2002.

Интернет манбалари

39. Travel & Tourism Economic Impact 2019. World, [Электронманба]: <http://www.wttc.org>
40. UNWTO Tourism Highlights 2015 Edition, [Электронманба]: <http://www.unwto.org>
41. UNWTO Tourism Highlights 2019 Edition, [Электронманба]: <http://www.unwto.org>
42. <https://lex.uz>.
43. <https://uzanalytics.com>.
44. <https://www.sirstat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2022-o-zbekiston-respublikasida-turizm-va-dam-olish-sohasi-rivojlanishining-asosiy-ko-rsatkichlari>.
45. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>.
46. <https://www.uznature.uz>.
47. <https://www.uzreport.news/society/sirdaryo>.

ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
BD-5110500-9.09
2019-yil «29» 06



“TURIZM VA REKREATSIYA GEOGRAFIYASI”

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5110500 - Geografiya o'qitish metodikasi

TOSHKENT – 201_

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil "4" 10" 292-sonli buyrug'ining ___ - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2019 yil "17" 08" 4 - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.


Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida ishlab chiqildi va Jizzax Davlat Pedagogika Instituti bilan kelishildi

Tuzuvchilar: Amanbayeva Z.A. - TDPU "Geografiya o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsent, g.f.n.

Taqrizchilar: O'Abdunazarov – O'zMU "Tabiiy geografiya" kafedrasida dotsenti, g.f.n.

N.Aripova – Sergeli tumani 300-DIUM geografiya fani o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2019-yil "29" 06" 11-sonli bayonnoma).

География ва уни ўқитиш
методикаси кафедраси мудири ў.ф.и.доч
М.Р. Амиркулов. 

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"Turizm va rekreasiya geografiyasi" fanining o'rganish ob'ekti bo'lmish rekreasion va turistik obyektlarning hududiy tarqalishi, mezonlari, mamlakatlardagi tabiiy, tarixiy, madaniy turlarining geografik tarqalishi, geografik o'rni, tabiiy sharoit potentsiali, turizm industriyasi, turizm siyosati hozirgi vaqtidagi iqtisodiy imkoniyatningning davlatlar turizmi rivojlanishiga ta'siri, rivojlantirish muammo va istiqbollari yoritishga mo'ljallangan. Dasturda mustaqillik yillarida O'zbekiston, jahonning-muhim turistik obyektlari iqtisodiy geografik subektlari sifatida, Respublikamizning tarixiy turistik ob'ektlarning qayta tiklanishi va ularga e'tibor yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga yordamlashishi ko'zda tutilgan.

"Turizm va rekreasiya geografiyasi" fani asosiy fanlaridan biri bo'lib talabalarga "Turizm va rekreasiya geografiyasi" fanining asosiy maqsadi, tushuncha va vazifalari, tabiiy, tarixiy, madaniy turistik obyektlaridan oqilona foydalanish vazifalarini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida bilim va ko'nikmalar berish, ularda turizmga oid tushunchalarni shakllantirishda, maktablarda va akademik litseylarda Turizmga oid mavzularda bilimlar berishda asos bo'ladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad-hududning "javohiri" deb tan olingan turistik obyektlarning, ya'ni tarixiy, madaniy, tabiiy, arxetektura obyektlarining kelib chiqish tarixi, yo'nalishlari ma'lum davrda bunyod etilgan milliy, tarixiy yodgorliklarning geografik joylashuvi haqida to'laroq bilim berishdir.

Fanning vazifalari-talabalarga rekreasion va turistik obyektlar haqida ularning o'rganilish tarixi,

- "Turizm va rekreasiya asoslari" yosh fan bo'lsada turizm o'rta asrlardan,
- buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlanganligi,
- hozirgi hududiy tarqalishi, turlari,
- iqtisodiyotdagi ahamiyati
- zamonaviy turizm turlari haqida ma'lumotlar berish;

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qoyiladi. *Talaba:*

- Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, Turizm va rekreasiya geografiyasining asosiy xususiyatlari, turizm turlari, tarmoqlari, rekreasiya rivojlanishining aholi va iqtisodiyotdagi ulushi haqida *bilimga;*

Turizm va rekreasiya geografiyasi rivojlanish hududiy chegaralarini aniqlay bilishni va xaritada tasvirlay olishni, turizm, rekreasiya asosiy turlarini qanday joylashganligini xaritadan aniqlay bilishni, uning turli qismlarida iqlimni o'zga xos xususiyatlari sabablarini aniqlay olishni, tabiiy resurslardan foydalanish sabablarini tushuntirib bera olish ko'nikmalariga,

- Turizm va rekreasiya obyektlarini joylashishidagi asosiy qonuniyatlar sabablarini aniqlashni, iqtisodiyotga ta'sirini, asosiy tarmoqlarini hududlar bo'yicha tarqalishini, joylashishini tushuntirib bera olishni, har bir Davlatning tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlarini turistik va rekreasion jihatlarini aniqlay olish va baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.

III. Asosiy nazariy qismi (m'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. "Turizm va rekreasiya geografiyasi" fanining nazariy asoslari

1-mavzu. Turizm va rekreasiya geografiyasi fanining o'rganish maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti

Fanining o'rganish maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti. Turizm va rekreasiya sohasidagi tadqiqotlar davrlar mobaynida, ilgari va hozirgi hamda zamonamizdagi olib borilgan ishlar bilan bog'liq holda rivojlanadi.

2-mavzu. Rekreasion faoliyatning klassifikatsiyasi

Rekreasion faoliyatning klassifikatsiyasida rekreasion resurslar tabiiy jihatdan baholanib turlarga ajratiladi hamda ular haqida tushuncha beriladi.

3-mavzu. Rekreasion geografyaning rivojlanish omillari.

Rekreantlarni hisobga olish metodlari

Rekreasion geografyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ochib beriladi. Rekreantlarni hisobga olish metodlari yordamida tushintirish.

4-mavzu. Rekreatsiyani rivojlantirishda turistik tashkilotlarning ahamiyati

Rekreasion faoliyatni rivojlantirishda turistik tashkilotlarning ahamiyatini tashkilotlar va ularning faoliyatini yoritish orqali talabalarga etkazish fanning asosiy vazifalaridan biridir.

2-Modul. Turizm – tizimi o'rganish ob'ekti sifatida

1-mavzu. Turizm – tizimi o'rganish ob'ekti sifatida

Turizmning shakllanishi, o'rganish obyekti sifatida o'z aksini topadi.

2-mavzu. Turizm mexiyati. Turizm klassifikatsiyasi

Turizmni tasniflash masalasi ushbu fan uchun eng dolzarb masala bo'lib uning nazariy jihatlari, tarqalishi qonuniyati, alohida tarzda o'rganiladi.

3-mavzu: Turistik yo'nalishlarning shakllanishi

Yonalish turlari kelib chiqishi, shakllanishi ochib beriladi.

4-mavzu: Turistik oqim statistikasi. Turistik daromad va xarajatlar statistikasi

Turistik oqim statistikasi davlatlar hududlar misolida o'rganiladi. Turistik daromad va xarajatlar statistikasi beriladi.

5-mavzu: Turistik bozorni segmentlash. Turizm turlari
Segmentlash turizm bozoridagi turlari misolida yoritiladi.

6-mavzu: Turistik talab geografiyasi. Turistik talabning hozirgi zamon yo'nalishlari
Turizmdagi talab, hozirgi zamon yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi.

7-mavzu: Turistik industriyaning xususiyatlari va tarkibi
Turistik industriyaning o'ziga xos xususiyatlarida Joylashtirish, transport va ovqatlantirish xizmati ochib beriladi

8-mavzu: Turizm siyosati asoslari
Davlatlarning turizm sohasidagi siyosati va hamkorligi ocib beriladi.

3-Modul. O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi

1-mavzu. O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi
O'zbekistondagi qadimgi tarixiy va madaniy turistik obyektlar ahamiyati ko'rsatiladi.

2-mavzu. O'zbekistonda rekreasiya resurslarning rivojlanishi
O'zbekistonning rekreasion resurslarining turizm rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan.

3-mavzu: O'zbekistondagi turizmini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi

So'ngi yillardagi O'zbekistondagi turizm sohasidagi islohatlar va imtiyozlar turistlar oqimiga sabab bo'ladi

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

- 1) Kirish. Kursning predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish tarixini tahlil qilish.
- 2) Rekreasion faoliyatning klassifikatsiyasini tahlil qilish o'rganish
- 3) Rekreasion geografiyaning rivojlanish omillari. Rekreantlarni hisobga olish metodlari o'rganish.
- 4) Rekreasiyani rivojlantirishda turistik tashkilotlarning ahamiyati o'rganish
- 5) Turizm – tizimi o'rganish ob'ekti sifatida shakllanish xususiyatlari.
- 6) Turizm moxiyati. Turizm klassifikatsiyasi ularning tahlili.
- 7) Turistik yo'nalishlarning shakllanishi yo'nalishlarini tahlil qilish.

- 8) Turistik oqim statistikasi. Turistik daromad va xarajatlar statistikasini tahlil qilish.
- 9) Turistik bozorni segmentlash. Turizm turlarini tahlil qilish.
- 10) Turistik talab geografiyasi. Turistik talabning hozirgi zamon yo'nalishlari.
- 11) Turistik industriyaning xususiyatlari va tarkibi
- 12) Turizm siyosati asoslari.
- 13) O'zbekistonda tarixiy madaniy turizm sohasining rivojlanishi
- 14) O'zbekistonda rekreasiya resurslarning rivojlanishi
- 15) O'zbekistondagi turizmini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi.

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriya bir akademik, guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzulari:

1. Rekreatsion geografiya asoslari faninin o'kti va predmeti.
2. Rekreatsion faoliyatning klassifikatsiyasi.
3. Rekreatsin okimlar statistikasi.
4. Rekreatsion geografiyaning rivojlanish omillari.
5. Rekreatsiyani O'zbekistonda rivojlanishi.
6. Rekreatsion geografiyaning yangi yunalishlari.
7. Rekreatsion asosiy tushunchalari.
8. Rekreatsion industriyada joylashtirish va ovqatlantirish sektori.
9. Dunyodagi mexmonxonalar bazasining hozirgi xolati.
10. Rekreatsion geografiyaning asosiy tushunchalari.
11. Joylashtirish va ovqatlantirish sektori.
12. O'zbekistonda rekreatsiyani rivojlantirish.
13. Rekreatsion faoliyat klassifikatsiyasi.
14. Xalqaro turistik tashkilotlar.
15. Jahon rekreatsiyasi geografiyasi.
16. Rekreatsion geografiyada statistikasini takomillashtirishning asosiy yunalishlari.
17. Rekreantlarni hisobga olish.
18. Dam olish va xordiq chiqarish.
19. Turizmda industriya tushunchasi.
20. Turizmda informatsion texnologiyalar.
21. Rekreatsiya bozorida muvozanat.
22. Turizmdagi asosiy tushunchalar
23. Jahon turizm geografiyasi.
24. Tarixiy madaniy turistik obyektlar
25. Xalqaro turistik tashkilotlarning rekreasiya rivojlanishidagi ahamiyati.

25. Xalqaro turistik tashkilotlarning rekreatsiya rivojlanishidagi ahamiyati.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Aleksandrova Yu . «Mejdunarodniy turizm». Uchebnik, Moskva.
2. O.Sh. Ismailov. Turizm biznesi va menejmenti. O'quv qo'llanma Toshkent, 2011.
3. Aliyeva M. va boshq. "Xalqaro turizm" Toshkent. 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунилари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил январь, № 11.
4. Мирзиёев Ш. М. Бу юк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. "Ўзбекистон", 2017.
5. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон", 2017.
7. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I., O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T.: "O'qituvchi" 1994.
8. Amanov M., Abduraxmonov A. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, Qoraqalpog'iston. T., 1995.
9. Jahon mamlakatlari uchun atlas.
10. To'xliiev N., va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" T.: 2006.
11. Rodrigue, J-P (ed). The Geography of Transport Systems. UK, London. Third Edition, Routledge. 416 pages. ISBN: 978-0-415-82254-1

Internet saytlari

12. www.ziyounet.uz/ru/library/book/6767/libid/70110
13. www.nuu.uz/faculties/economy/index.php?lk=mi_kaf&ln=en
14. www.connect.uz/forum/index.php?showtopic=256&st=165
15. www.gov.uz/uz/content.scm?contentId=13040



QAYD ETMOQ UCHUN

A large, empty rectangular box with a black border, intended for registration or recording information.



QAYD ETMOQ UCHUN

A large empty rectangular box with a black border, intended for registration or recording information.

**Asqar Nigmatov, Abror Yuldashev, Lola Qarshiboyeva,
Odiljon Tobirov**

**TURIZM VA UNI SIRDARYO
VILOYATIDA RIVOJLANTIRISHNING
GEOGRAFIK JIHATLARI**

MONOGRAFIYA

Muharrir: Musayev I.S.
Sahifalovchi: Shaynazarov M.A.

100070, Toshkent Shahri, M.Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak Yo'li
ko'chasi, 105-uy.

Tel.: (90) 128-68-86. Elektron pochta: boy-2005@mail.ru